

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

FARG`ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

**O`zbek tili yo`nalishi
15.44- guruh bitiruvchisi Qodirova Maftuna Rasul qizining**

**“Isajon Sulton hikoyalarida peyzaj va uning badiiy-estetik
funktsiyasi” mavzusidagi**

BITIRUV-MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

G.Muhammadjonova

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

FARG`ONA - 2019

Bitiruv – malakaviy ish adabiyotshunoslik kafedrasining 2019 - yil

_____ - yig`ilishida muhokama qilingan va himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **G.Muhammadjonova,**
filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchi: **O.Barziyev**
FarDU qoshidagi 3 -AL o`qituvchisi

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
-------------	---

I.BOB. ASAR KOMPOZITSIYASIDA PEYZAJNING O`RNI

I.1. Isajon Sulton hikoyalari kompozitsiyasidagi o`ziga xoslik	7
I.2. Tabiat tasviri va unda muallif konsepsiyasi.....	19

II. BOB. SHAMOL OBRAZI VA UNING YOZUVCHI G`OYAVIY-BADIIY NIYATINI IFODALASHDAGI ROLI

II.1. Isajon Sulton asarlarida shamol obrazi.....	25
II.2. Ramz va ramziylikda shamol obrazining tutgan o`rni.....	42

XULOSA.....	47
-------------	----

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....	49
---	----

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston jahonga yuz tutib, tobora yuksalish, yangilanish jarayonini boshdan kechirayotgan kunlarda eng dolzarb va muhim nazariy muammolarni tadqiqot markaziga olib chiqish va hal etish mamlakatimiz olimlari oldidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa bo'lib turibdi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy-gumanitar fan sohalarida mazmunan teran va sifat jihatidan yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan adabiyotshunoslik fani ham o'z obyektiga yangicha nazar bilan qarash, asar poetikasiga oid muammolarni chuqurroq o'rganish, ularni haqqoniy va teran tahlil qilish, yangicha adabiy - estetik mezonlar asosida ish ko'rishga kirishdi.

Muhtaram birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov aytganidek, "Fanimiz, aql-zakovat, salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'z millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikka ishonchli xizmat qilib kelmoqda"¹.

Ma'lumki, insonning ma'naviy kamolotida badiiy adabiyot muhim rol o'ynaydi. Poetik jihatdan yetuk badiiy asarlarning yaratilishi, ularning tadqiqi bilan bog'liq izlanishlar esa katta ahamiyatga ega. XX asr oxiri va XXI asr boshlari o'zbek adabiyoti mazmunan va shaklan boyib borayotgan adabiyot sifatida o'z bag'rida yangicha ifoda usullarini namoyon etmoqda. Ana shunday iste'dod sohiblaridan biri yozuvchi Isajon Sultondir. Isajon Sulton prozasi milliylik va umuminsoniylik, an'ana va novatorlik, falsafiy-badiiy talqinlar nuqtai nazaridan yangi ilmiy ma'lumotlar bera oluvchi manbadir. Uning asarlari falsafiy teranligi, yangi badiiy topilmalarga boyligi bilan ko'plab kitobxonlar va adabiyotshunos olimlar, tanqidchilar e'tiborini tortgan. Shunday e'tibor talab jihatlardan biri asar kompozitsiyasi va undagi peyzajning badiiy-estetik funksiyasi masalasidir. Inson

¹ Karimov. I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, "O'zbekiston", 1997, 259-bet.

va tabiat yaxlitligini aks ettiruvchi bu tasvirlar asar kompozitsiyasida bir qator muhim funksiyalarni bajaradi.

Har qanday adabiy asarning badiiy yuksakligi, umri uzoqligi, o`ziga xos fazilatlari, sehri va jozibasi, birinchi galda, til boyligida, muallif nutqining qurilishida, asar kompozitsiyasida, portret va peyzajning yaralishida namoyon bo`ladi. Juda ko`p asarlarda tabiat tasviri muallif nutqi orqali berilsa, ayrim asarlarda roviy, hikoyachi-qahramon nutqi orqali beriladi. Iste`dodli yozuvchi Isajon Sulton asarlaridagi peyzajning bu kabi badiiy-estetik funksiyasini tahlil va talqin qilish ishning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Yangi o`zbek adabiyot rivojida bir qator yorqin iste`dodlar alohida o`rin tutadi. Ularning qatorida Isajon Sulton ijodi ham alohida e`tirofga loyiq. Buning maqsadi sifatida yozuvchining uslibiy mahoratini aniqlash, hikoyalarining o`ziga xosligini o`rganish, asar kompozitsiyasida peyzajning tutgan o`rni, yozuvchining peyzaj yaratish mahoratini tadqiq etish belgilandi.

Tadqiqotning vazifasi. Ushbu bitiruv-malakaviy ishni yoritishda quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- asar kompozitsiyasida peyzajning o`rnini tadqiq etish;
- tabiat tasviri orqali qahramon ruhiyatini yoritish;
- peyzajni chizishda adib mahoratini belgilash;
- peyzaj turlarini tahlil qilish;
- qahramon xarakterini yoritishda peyzajning o`rnini aniqlash;
- peyzaj vositasida ramziylikning ifodalanishida muallif pozitsiyasini tadqiq etish.

**Mavzuning o`rganilish darajasi.** Isajon Sulton ijodi bir qator adabiyotshunos olimlar, adabiy tanqidchilar tomonidan muayyan aspektlarda o`rganilgan. Jumladan, O.Sharafiddinovning “Ijodni anglash baxti”² (2004), U.Normatovning “Ijodkorning haroratli so`zi” (2015) asarlari, D.Quronovning

² Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. –Toshkent.: 2004-yil.

“Zavqimdan bir shingil”³ (2013) risolasi, D.Quronovning “Mutolaa va idrok mashqlari”⁴ (2013) kitobi, Y.Solijonovning “Haqiqatning sinchkov ko`zlari”<sup>5</sup> (2009), “Mo`jizalar sehri”⁶ (2013) kitoblari, R.Rahmatning “Adabiyotdan chiqish”⁷(2015), U.Ali “Ko`ngilga sayr”<sup>8</sup> (2009) kitoblarida Isajon Sultonning ijodi va asar kompozitsiyasida peyzajning tutgan o`rni yuzasidan adabiy-tanqidiy, adabiy-nazariy qarashlar mavjud.

Yozuvchi va olim Ulug`bek Hamdam izlanishlarida, xorijlik olim Veli Savash Yelok<sup>9</sup> ilmiy ishlarida Isajon Sulton asarlari muammoning nechog`lik badiiy va haqqoniy, mahorat bilan tasvirlanganligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi, shu asosda xolis hamda ishonchli xulosalar beriladi.

Tadqiqotning yangiligi. Biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, Isajon Sulton ijodi bo`yicha ilmiy ishlar qilingan. Adib mahorati, uslubi, xarakter yaratish mahorati kabi masalalar tahlil qilingan. Qissa va romanlari poetikasi haqida ayrim olimlarimiz ilmiy maqolalari mavjud. Biroq adibning hikoyalaridagi peyzajning badiiy-estetik funksiyasi haqida alohida ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan. BMIda adib hikoyalaridagi tabiat tasvirini ilmiy va nazariy jihatdan tahlil qilinishi ishning yangiligini belgilaydi.

Ishning obykti. Ishga yozuvchi Isajon Sultonning “Organik proza”, “Anorganik proza”, “Bog`i Eram hikoyalari”, “Tarixiy hikoyalar”, “Qaydasan, jannat” hikoyalari turkumi obyekt sifatida tanlandi.

Ishning tuzilishi. Ish kirish, ikkita bob, har bir bob ikki fasl, xulosa va adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifasi, o`rganilish darajasi, ob`yekti, yangiligi, tuzilishi kabi masalalar yoritildi.

³ Quronov D. Zavqimdan bir shingil. –Toshkent.: Akademnashr, 2013-yil.

⁴ Quronov D. Mutolaa va idrok mashqlari. –Toshkent.: Akademnashr, 2013-yil.

⁵ Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko`zlari. –T.: A.Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi, 2009-yil.

⁶ Solijonov Y. Mo`jizalar sehri. –Toshkent.: 2013-yil.

⁷ Rahmat R. Adabiyotdan chiqish. –T.: Akademnashr, 2015- yil.

⁸ Ali U. Ko`ngilga sayr. –T.:Yangi asr avlodi, 2009-yil.

⁹ Veli Savash Yelok. Yangi tamoyillar kashfi. // Jahon adabiyoti. 2018. 4-son. 191-196.

I BOB. ASAR KOMPOZITSIYASIDA PEYZAJNING O`RNI

1.1.Isajon Sulton hikoyalari kompozitsiyasidagi o`ziga xoslik

Badiiy asarni yaxlit holda o`quvchiga yetkazish uchun muallif badiiy niyati, ideali, dunyoqarashidan kelib chiqib turli qismlarni bir-biriga mantiqiy muvofiqlikda berilishi kompozitsiya, u shakliy kategoriya hisoblanadi deb manbalarda yozilgan. Lekin agar u faqat shakliy kategoriya bo`lsa, unda asar mazmuniga doir elementlarni qamrab olmasligi kerak bo`ladi. Demak, kompozitsiyaning shakl va mazmun birligini namoyon qiluvchi asosiy asoslardan biri, desak maqsadga muvofiq bo`ladi.

Aslida kompozitsiya deganda, odatda, badiiy asardagi shakliy qismlarni badiiy mavzu, g`oya, muammolar tizimi, epik kechinma, estetik ideal kabilarni ifodalash uchun bir reja asosida joylashtirish, uyishtirish tushuniladi. “Kompozitsiya (lot. tartibga solish, tuzib chiqish) asardagi barcha unsurlarni shunday uyushtiradiki, natijada unda bironta ham ortiqcha unurning o`zi bo`lmaydi, zero har bir unsur asar butunligida o`zining funksiyasiga ega bo`ladi, muayyan g`oyaviy-badiiy yuk tashiydi. Avvalo, kompozitsiyaning katta qismini sujet tashkil qilishini ta`kidlash joiz. Shu bilan birga, badiiy asar faqat voqealar tizimidangina iborat emas, unda rivoya, tafsilotlar, peyzaj, portret, interyer, lirik chekinish, qistirma epizod, obrazlar tizimi kabi sujetdan tashqari qator unsurlar ham mavjud. Yozuvchi asar qurilishini belgilaganda ularning har birini o`z o`rnida, o`z me`yorida ishlatishi, qismlarni butun bilan mustahkam aloqada bo`ladigan, bu aloqalar anglandigan tarzda joylashtirishi muhim”¹⁰. Demak yozuvchi badiiy asar yaratar ekan, avvalo, o`zi tanlagan hayotiy materiallar – mavzu, obraz, sujet, joy, vaqt, turli detallar, obrazlarning tashqi ko`rinishi, ularning kasbi va nutqi kabilarni zarur tartibda joylashtirishi asar kompozitsiyani tashkil etadi.

Kompozitsiyaning qurilishi ham san`atkor tanlab olgan va tasvirlagan hayotiy materialga bog`liqdir. Badiiy mazmun kompozitsiyaning qanchalik aniq

¹⁰ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent. Fan. 2007. B.110.

qurilganligiga bog`liqdir. Asardagi kompozitsion elementlarning barchasi umumiy maqsadga qaratilgan bo`lishi kerak¹¹.

Kompozitsiya elementlari:

- syujet elementlarining tartibi;
- badiiy qoliplash;
- qistirma hikoyalar;
- lirik chekinish, kirish, xotima.
- syujet liniyalarining joylashishi;
- obrazlarning joylashishi;
- qahramonlarning dialog, monologlari, o`z tuyg`ularini ifoda etishlarining o`rni, ichki monologlar;
- portret xarakteristikasi. Portretda qahramonlar tashqi qiyofasigina emas, ularning ichki dunyosidagi o`zgarishlar ham mujassamlanadi.
- peyzaj va muhit xarakteristikasi.
- badiiy detal.

O`zbek adabiyotining ko`zga ko`ringan yozuvchilaridan biri Isajon Sulton hikoyalari kompozitsion jihatdan o`ziga xos puxta tashkillanganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Yozuvchi bu masalaga novatorona yondashadi. Bu hatto yozuvchining hikoyalar to`plami kompozitsiyasida ham seziladi. Yozuvchi hikoyalarini turkumlarga tasniflaydi:

1. *Organik proza.*

2. *Anorganik proza.*

3. *Bog`i eram hikoyalari.*

¹¹ Раҳимов З.Адабиётшуносликка кириш. Фарғона, Б14.

4. Tarixiy hikoyalar.

5. Xun turkimidagi hikoyalar.

Yuqoridagi tarzda turkumlarga ajratishi uning o`ziga xos uslubidir. Chunki hech qaysi bir yozuvchi ijodida bunday holatni uchratmaganmiz. Isajon Sulton hikoyalarini mavzulariga, g`oyasiga qarab shunday turkimlarga ajratgan.

Yozuvchi har bir kompozitsion unurning zimmasiga asosiy g`oyani yoritib berishga xizmat qiluvchi muayyan vazifalarni ustalik bilan yuklaydi va ularning chiroyli natijasini asarni o`qish davomida chuqur his qilish mumkin. *Adib ijodida inson va tabiat mavzusi muhim o`in tutadi. Buni tasvirlashda esa peyzajdan ham mohirona foydalanadi. Hikoyaladagi tabiat tasviri voqealar rivojida asarning asosiy qismi bo`lib xizmat qilgan. Kundalik hayotimizda, ayniqsa qishloq hayotining har bir qadamida uchrovchi tabiat tasvirlari, voqea-hodisalar asarning kompozitsiyasida ayricha ifodasini topgan. “Qo`riqchi” hikoyasi qishloq hayotida dalalarda eng kerakli va taqdiri hech kimni qiziqtirmidigan yasama qo`riqchining yashash tarzi, uning qalbidagi hech kim eshitmaydigan dil so`zlarini qiziqarli tarzda ochib bergan. Qishloq tasviri, atrof-muhit bir jonsiz qo`riqchi ko`zi bilan idrok etiladi, tasvirlanadi.*

“ Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo`shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo`lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To`g`rirog`i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma’noli va ta’sir usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o`qib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmi his etamiz”, - deya e’tirof etadi adabiy tanqidchi Rahimjon Rahmat o`z izlanishlarida¹².

¹² Раҳимжон Раҳмат. “Муножот”дан “Бокий дарбадар”гача. Сўнгсўз ўрнида // Бокий дарбадар. Т., Ўзбекистон, 2011.Б. 262.

Insonparvarlik Isajon Sultonning yaxlit ijodiga, jumladan, nasriga ham xos xususiyatdir. Falsafiylik esa Isajon Sulton ijodiy uslubining muhim belgisi. Mavzu ketidan quvish, kundalik voqea-hodisalarni adabiyotga olib kirish, zamonasozlik ruhida asarlar na muallif ijodida, na adabiyot tarixida sezilarli iz qoldirmaydi. Ushbu pozisiyani yoqlagan yozuvchi oddiy mavzular bag`ridan ham buyuklik hamda donishmandlik bilan sug`orilgan talay falsafiy obrazlarni topa oladi.

*Adib tabiat shaydosi sifati har bir tabiat lavhasini jonli aks ettiradi. Shuning barobarida peyzaj katta falsafiy fikr ifodasiga ham xizmat qiladi. Ma'lumki, Oybek tabiat shaydosi sifatida tabiat tasvirlariga alohida o`rin ajratgan va u lirik qahramon ruhiyatiga xos pafos asosida yoritilgan. Abdulla Qahhor ijodida esa peyzaj ramz va falsafiylik bilan yo`g`rilgan. Isajon Sulton ijodida ayni ikki xususiyat uyg`unlashgan. Uning asarlarida tabiat manzaralari nafaqat tasvirlanadi, balki yuqori pafos bilan kuylanadi. Epik tasvir imkoniyatlari qatoriga lirikaga xos jo`shqin pafos va tilning bo`yoqdorligini, lirik qahramon ruhiyatiga xos hissiy evrilishlarni singdira olgan Isajon Sulton hikoyalari alohida kayfiyat bilan o`qiladi. Adib yaratgan peyzaj tasvirlari ramziy-falsafiy xususiyatga ega. Yozuvchi tabiat hodisalariga ham alohida poetik vazifani yuklay olgan. Jumladan, uning "Boqiy darbadar", "Ozod" kabi romanlari va hikoyalarida **shamol obrazi** ayricha talqin etiladi. Nasim, yel, shabboda, shamol, bo`ron, dovul singari obrazlar vositasida inson va hayot to`g`risidagi falsafiy qarashlar turfa talqinlarda o`z ifodasini topadi. Adibning "hikoyalarida shamol esishi, shamol o`yini, qahri, muloyimligi o`ziga xos timsol... "Boqiy darbadar" romanida bo`ron dahshatli kuch va ilohiy aralashuv sifatida ... "Ozod"da sarsari shamol ham hamroh, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi" sifatida ko`rsatiladi"*<sup>13</sup>. "Oydinbuloq" hikoyasida esa shamol umrning o`tkinchiligini eslatib turuvchi, o`tgan fursatlarni sarhisob qiluvchi odil hakamdir.

"Yozuvchi ijodida "Oydinbuloq" hikoyasi yorug` tuyg`ular ila yo`g`rilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hikoya Qo`qonning Oydinbuloq qishlog`ida tavallud topgan shoir Yo`ldosh Sulaymon xotirasiga

¹³ Расулов А. Акслар фалсафаси // Исажон Султон. Озод. «Шарқ» Т., 2012. 421б.

bag`ishlangan. Xotirot tarzida - retrospektiv syujet asosida yaratilgan asar voqealari lirizm bilan yo`g`rilgan, lirikaga xos “men” tilidan bayon qilinadi. Asarni o`qish davomida bir tolim yorug` nurni his etasiz. Xuddi inson umrini muhabbat tuyg`ulari yoritib, ilitib turgani kabi asarni ham ilk muhabbatning xotiralari yoritib turadi. Hikoyani “Muhabbat haqida qo`shiq”, deya atasa bo`ladi”¹⁴. Unda tabiatning tasviri romantizm an`analari asosida optimistik ruhda kuylanadi:

“U mahallar olam behad keng, Oydinbuloq behad katta, bu bujur tol soyasi dunyoni enlagudek edi.

O`shanda...

O`shanda... bu buloq yonida men Parizodni uchratgan edim!

Eslayapmanu... o`zimni xuddi o`n yetti yashar bo`z yigitday sezyapman...

Axir, o`shanda ... olam boshqacha edi, birodarlar!”

Poetik takrorlar, jumalarning o`ziga xos hissiy-emotsional to`yintirilganligi, lirik kechinmaning talqini nasrga nazmga xos ko`tarinkilikni baxsh etgan.

Oydinbuloq yonida parizodni uchratgan o`spirinning kechinmalari yillar silsilasida tahlil etiladi. Harbiy xizmat, yigirma besh -o`ttiz yoshlikda ham “o`sha surur, o`sha xushbaxtlikni qo`msagan” qahramonning “ko`ngli Oydinbuloq yonida qolib ketdi”. “Oydinbuloq kichrayib, bujur tol keksaydi, bari o`smirlikning shirin xotirasiga aylanib qoldi”.

O`g`lini uylantirayotgan o`rtog`ining to`yiga ketayotgan qahramon “bir qo`lida go`dagini ko`targan, bir qo`lida qizalog`ini yetaklagan” juvonni ko`rdiyu, yuragi hapqirib ketdi: “Yopiray! Tomog`im quruqshab, yuragim hapqirib ketdi. Muncha o`xshamasa? Parizod? Parizodmi u?” Endi bujur tol qartaygan. Ildizlari yalang`ochlanib, po`stloqlari ko`chib tushgan. Oshiq ko`kdan tushgan parizodini

¹⁴ Muhammadjonova G. Badiiy asar tahlili. Farg`ona, 2018. B. 5.

tutib qola olmadi, asli u ko`kdan yerga uni deb tushgan va diyoriga qaytib keta olmay, kimningdir asirasi bo`lib, yerda qolib ketgan parizodi endi yer qiziga aylanib bo`lgan edi. O`zi uchun atalgan malakni yonida olib qola olmagan oshiqning afsus va armonlari endi Oydinbuloq xazonlari misolida umrning zavolli ekaniligidan darak berayotgandek. “Dil yomon to`liqib, yomon orziqayotir”.

Oydinbuloqdagi tol yaproqlariga shamol bir paytlar “Bu kunlar sharaflidir”, - deb bitar edi. Endi esa ularga “Bu kunlar zavollidir”, - deb bitibdi. “Chakkalariga qirov oralagan, yuzlariga ajin tushgan” kishi timsolida umr o`tib borayotganligi, biroq bu goho mashaqqatli, goho sharaflil yo`lda muhabbat yo`lchi yulduzdek mayoq ekanligi asar davomida quyidagi jumlar asosida ta`kidlab o`tiladi: “Oydinbuloq ko`zida chirillab aylanayotgan bir yaproq”. Asar davomida yaproq bilan bog`liq tasvir to`rt marotaba takrorlanadi. Va bu yozuvchi ko`zlagan g`oyaviy-badiiy niyatga ishoradir:

“Buloq ko`zchasiga bitta yaproq tushib qolibdi, girdobdan chiqib ketolmay, chirillab aylanyapti”.

“Qaynab chiqayotgan suv oy nurida jivirlaydi, shabada bulturigi xazonlarni shildiratib o`ynaydi, buloq ko`ziga tushib qolgan bir yaproq chirillab aylanadi”.

“Oydinbuloq juda kichrayib qolgan. Ammo ko`zchasida girdobga tushib qolgan bitta yaproq hanuz chirillab aylanyapti”.

“Sezyapsizmi. Oydinbuloqda bir yaproq chirillab aylanayotir...”

Bu yaproq – ilk muhabbat, uning shirin xotirasidir. Buloq – soflik, beg`uborlik, hayot timsoli. Buloq qaynamoqda, hayot davom etmoqda. Buloq yasharish, poklik ulashib qaynamoqda. Uning ko`zchasida esa bir yaproq chirillab aylanadi. Ko`z dunyoni idrok etish, anglash vositasidir. Demak, qahramon dunyoni bir vaqtlar yuragiga cho`g` tashlagan, biroq zavolga yuz tutgan muhabbat ko`zi ila idrok etayotir. Va bu muhabbat inson tirikligi qadardir.

Shuning uchun ham asar so`nggi “Sezyapsizmi. Oydinbuloqda bir yaproq chirillab aylanayotir” jumalari bilan tugallangan.

Parizodning dinamik usulda yaratilgan portretida ham ko`z tasviriga alohida urg`u berilgan. Ko`z – inson qalbining oynasi. Parizoddagi ruhiy-hissiy o`zgarishlar ko`z vositasida qadam-baqadam yorqin tasvirlanadi. “Samodan emas, Oydinbuloqdan taralgan nur”da “yer qizlari tushlaridayam ko`rmaydigan libos”- la turgan parizodning “ko`zlari yulduz, fusunkor”. Tasodifiy uchrashuvdan uning ko`zlarida “xavotir, hurkish” zuhur etadi. Keyinchalik “ohu ko`zlaridagi hurkaklik qo`rquv va g`ussa bilan almashdi” .

Tilsim ro`molini qo`lga kiritgan pari... “Ana endi bu go`zal chehradagi o`zgarishni ko`ring! Hozirgina yosh ingan kipriklari pirliradi, katta, qop-qora ko`zlari bolalarcha quvonch bilan boqdi, qaldirg`och qanotiday qoshlari hayronlik bilan chimrildi”. Bu kabi ruhiy-psixologik tasvirlar qahramonning sohir dunyosini ochib berishda, undagi ruhiy o`zgarishlarni tasvirlashda muhim o`rin tutadi. Ayni o`rinlarda kino san`atiga xos xususiyatni kuzatish mumkin.

Adabiyotda badiiy sintez asarga yana-da xalchillik va haqqoniylik sifatini baxsh etadi. Hikoyada peyzaj, parizodni uchratgandagi portret chizgilari tasvirida kinoga xos xususiyatlar yorqin aks etgan. Bu bilan kitobxon o`zini xuddi shu voqelikning ishtirokchisi, bir qismidek his etadi.

Asar qahramonlari ismsiz. Biri – bayonchi, ikkinchisi –parimisol Parizod. Yozuvchi bu ikki siymo timsolida minglab-millionlab yuraklarga xos muhabbatni tarannum etgan, kuylagan. U Yo`ldosh Sulaymon, u Isajon Sulton, u muhabbatli qalblar. Buni asar so`ngidagi iqrordan ham anglasa bo`ladi: “ Axir o`n yetti yoshida ko`k yuzida o`ziga atalgan Parizod borligiga shubhasiz ishonmagan odam topilarmikin bu ko`hna olamda?”

Hikoyada bujur tol, buloq, yaproq timsollari muayyan poetik vazifa asosida yorqin tasvir yaralishiga xizmat qilgan. Muhabbatli yurak izhorlari,

o`smirlik va o`rta yosh dunyoqarashining o`ziga xos talqini ular vositasida chiroyli ifodalangan.

Yozuvchining har bir hikoyasida peyzaj- tabiat ta'sviri eng muhim rol ni o`ynaydi. Uning "Sofiya", "Suvdagi kosa", "Bog`i eram" kabi hikoyalarida tabiat tasviviri asarning boshidan oxirigacha muhim o`rin tutadi ya'ni asarning sujeti vazifasini bajargan, desak xato bo`lmaydi. Chunki asarning bosh qahramoni ham, asardagi yetakchi obrazlar ham tabiatdagi hodisalar hisoblanadi. Yozuvchi hayotdagi har bir narsani, voqea hodisani tabiat bilan bog`laydi. Isajon Sulton qishloq hayotida ulg`aygan adiblarimizdan biri bo`lib, uning hikoyalarining deyarli barchasida qishloq hayotining go`zal tarovatli manzarali odamni havasini keltiruvchi so`lim go`shalari hamda odmigina yashasada hech ham hayotidan nolimaydigan mehnatsevar insonlar tasvirlangan "Sog`inch" hikoyasidai 6 oyga qishlog`idan boshqa joyga ishlagani kelgan hikoyaning bosh qahramoni musichalarga g`amho`rlik qilgan bir kishi misolida ko`rishimiz mumkin. Bunda yozuvchi insoniy sog`inch hissini, yaqinlarga mehr-muhabbat tuyg`usini tabiatdagi jonzotlarga, o`simliklar olamiga munosabatlar asosida ko`rsatib beradi. Ba`zan esa tabiat ayni insoniy tuyg`ularni yodga soluvchi, insonni ruhan poklanishga chorlovchi vazifasini bajaradi.

Isajon Sulton hikoyalarida voqealar noreal tarzda yozilgan. Undagi ayrim hikoyalardagi voqealar afsonaga mifga o`xshash tarzda yozilgan, ya'ni oldin yoshlik paytimizda eshitgan ajabtovur voqelar asosida paydo bo`lganga o`xshaydi. Masalan, uning "Avliyo" hikoyasini olsak, undagi voqealar yasamaga o`xshaydi qachonlardir Avliyo ota degan hazrat bo`lgan bo`lishi mumkin, lekin bugungi axborot texnologiyalari asrida bunga unchalik ishonilmaydi. Chunki hozirgi davrda inson u dunyoda qanday hukm etilishini aytib beradigan dahoning o`zi yo`q. Yozuvchi bu hikoyani hayoti davomida bizlar singari afsona tarzida eshitgandir, lekin uning yutug`i shundaki, bu asar kitobxon qalbidan joy olgan asardir. Chunki asarda Abduqodirning bolalik paytida Avliyo ota uni jannatga tushadi, deb bashorat qiladi, lekin yoshi

ulg'aygandan so'ng bashoratning aksini aytadi. Yozuvchi bu bilan nima demoqchi. Bolani farishtaga tenglashtirishlari bejiz emas, chunki Abduqodir bolalik davrida farishta singari beg'ubor bo'lgan, ulg'aygan xatoliklarga yo'l qo'ygan, u halol yashadim-ku deb o'tkan umrini sarhisob qiladi, biroq halol yashash kamlik qilar ekan. Odamzot HAR BIR BOSGAN QADAMINI O'YLAB BOSISHI kerakligini ana shundagina jannati bo'lishi mumkinligi asar orqali ochib berilgan. Yozuvchi hikoyalaridagi qahramonlar galareyasi bu yorug' dunyoda oqilona yashash uchun javob izlayotgan odamlardan iborat. Noreal voqealar changalida hayot mohiyatini izlayotgan bu qahramonlarning ayrimlari to'g'ri javob topib, o'tkinchi dunyoda ro'shnolik ko'rgani, ba'zilarining esa chigalliklar girdobida g'arq bo'lib ketishi ishonarli tasvirlangan. Uning hikoyalari kitobxonni o'ziga jalb etuvchi, o'yga toldiruvchi takrorlanmas hikoyalardir. Yozuvchining hikoyalari zahirida teran mazmun mohiyat yotadi. Hikoyalarni qayta qayta o'qiganimizda uning mazmun -mohiyati, hayot haqiqati qanchalar ochib berilganini uqishimiz mumkin. Bunday hikoya yozish anchagina mahorat va mashaqqat talab qiladi ijodkordan. Ijodkor bitta asari bilan minglab insonlari fikrlashga undaydi. Asarni ochilmagan qirralarini ochilishiga undagi yutuq va kamchiliklarni topishga va asarning mazmun mohiyatidan ma'naviy ozuqa olib, insonlarni hayotga muhabbat ruhida yashashga undaydi. Umrning qadriga yetishga, faqat yaxshilik qilish, o'zgalarni atrofidagi insonlarni qadrlashga shu kabi yaxshi insoniy fazilatlarni qalbida va ongida uyg'otishga chorlaydi. Uning har bir hikoyasida qo'llagan detallari o'ziga xos vazifni bajaradi. Isajon Sultonning "Ayvon" ya'ni ("Qismat") hikoyasida badiiy detal asar nomi darajasiga ko'tariladi. O'zbek xonadonini ayvonsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ayvon inson hayotidagi bo'lib o'tgan har bir voqea hodisaga guvoh bo'lgan tilsiz tirik guvoh hisoblanadi. Hikoyada ayvon ustuni, chumolilar, arilar, cho'p savatdagi quritilgan non, qurit, tomorqa, terak, zovur, tilla baliq singari detallar hikoyaning tasvir obyekti hisoblanib, ularning har biri alohida muhim vazifa bajaradi. Asar sujeti o'ziga xos tuzilushga ega bundagi voqealar noreal tarzda yozilgan.

“Bog`I Eram ” hikoyasi qahramoni - onasi yopgan issiq nonlarni ariqning zilol suviga botirib o`ynayotgan bolakayga keksalik ufqiga yetib borgan Xolmuhammad buva ro`para keladi. “E voh, o`zim ham ariqdagi suvday oqdim ketdim” - dedi chol va o`ksinib xo`ngrab yig`lab yubordi”. Hikoya so`ngida yana o`sha charxpalakka duch kelimiz – endi qahramonimizning o`zi qartayadi, qartayganicha ko`rgan-kechirgan turmush ikir-chikirlarigacha yozuvchi to`xtalmaydi, ular kundalik kundalik mayda-chuyda tashvishlar qatorida e`tiborini tortmaydi, hozir esa, qahramonning o`zi qariya, gavdasi egik madori ketgankunshuvoqda oftobda isinib o`tiradigan holda. Bu tuproq ko`chadan hassasiga tayanib borayotganida, ariqda o`ynayotgan ikki bolaga – kelajak avlodga duch keladi. “Axir men ham bir mahallar onam yopgan nonlarni sizlar kabi ariqda oqizib yer edim... E voh, o`zim ham ariqdagi nonday oqdim-kettim-ku ” degan o`sha gapning hayolda hosil bo`lish sababiga yetib kelimiz: “Dilimda esa bu g`alat charxpalakning haybatidan hosil bo`lgan g`alati qo`rquv....“.

Asar deyarli tabiat tasviri asosiga qurilgan. Bolalar non oqizib o`ynayotgan jannatmonand go`sha tasviri jannat tasviri bilan uyg`unlashib ketgandek go`yo. Tasvirdagi yorqin, oq ranglar, nurlar inson qalbi kengliklaridagi chin mohiyatni ochib yoritib beradi.

Isajon Sultoning hikoyalarida poligarmoniya, politasvir diqqatni tortadi. Yozuvchi hech qachon, bitta holat bitta masala yopishib olmaydi. Uning “Shamolli kecha”, “Sog`inch”, “ Avliyo”, “Oydinbuloq” hikoyalarida shamol esishi, o`yini, qahri, muloyimligi o`ziga xos timsol. Yozuvchining “Boqiy darbadar ” romanida bo`ron dahshatli kuch va ilohiy aralashuv kuch sifatida ko`rsatilgan edi. Uning “Ozod ” romanida sarsari shamol ham hamroh, ham ustoz, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi Ozodning Uchyong`oqdan Iskandar tog`igacha borishiga shamol yetakchilik qiladi. **“Shamolli kecha”** hikoyasida shamol real voqelik hamda taqdir shamoli sifatida namoyon bo`ladi. Hayot shamolining turli tuman xavflari aro onasi Nozik, xolalari Latofat, ammalari Go`zal deb ataydigan ko`zlari kulib-kulib turadigan yoqimtoygina qizaloq, ya`ni

go`zallik, latofat, nazokat timsoli va eng asosiysi, akaning or-nomusi o`sha qo`rquvlar bois o`sha xavf-hatar ichida qolib ketadi. Vaholanki, yolg`iz himoyachisi akasi edi.... Bu zalvorli hikoyaning boshqa bir jihati naslni davom ettira oladigan yagona ayol ham qizaloq edi. Chunki “ota boshqa ayolga uylangan, boshqa farzand ko`rgan, aka-singil undan yotsirar edilar”.

*Asarda shamolning yuraklarga qo`rquv soluvchi ovozi A.Qahorning “Dahshat” hikoyasidagi shamolli kecha tasvirini yodga soladi. Har ikkala hikoyaning tabiat tasviri bir xil faqatgina sujeti bilan farq qiladi. Ikkala hikoyada ham kuchli shamol kechasida bo`lib o`tgan voqealar tasvirlangan. “Dahshat” hikoyasida bosh qahramon **Unsinning** taqdiri nima bilan yakunlangani ochib berilgan, lekin “Shamolli kecha”da esa **Nozik** ismli qizaloqning topilishi yoki topilmasligi noaniqligicha qolgan. Abdulla Qahorning ushbu hikoyasini o`qiganimizda **Unsinning** vafot etganiga achinib uning ota-onasi va **Dodxohni** ayblaymiz, I.Sultonning hikoyasida esa kitobxonning bir to`xtamga kelishi qiyin, chunki **qizaloq** topilishi ham mumkin, topilmasligi ham.*

Asarda voqealar shamol bo`lgan tunda sodir bo`ladi. Masalan, Dang`araning dashtida, shamolli kechada aka-singil buvilarinikiga ketib borishmoqda edi. Qorong`u tusha boshlagan bo`lsa-da hali tevarakni enlab ulgirmagan edi. qarama-qarshidan esayotgan shamol shiddati ostida och kulrang tusli notanish butalar yovvoyi is taratib yulqinar, ko`tarilgan changu to`zon isi ham tevarakni yutib ketgan edi.

Ushbu jumladagi peyzaj tasviri o`ziga xos bir nechta vazifani bajarmoqda. Birinchidan, hikoyadagi voqea-hodisaning qayerda ro`y berganligi. Ikkinchidan, voqealar shamolli tunda ro`y berganligi va uchinchidan, taqdir shamoli va uning aka-singil hayotiga ta`siri. Aka-singilning taqdir yo`llarida ayro tutishi shamolli kecha ta`rifi bilan beriladi. Hikoya yozuvchining an`anaviy uslubiga xos tabiat tasviri asosiga qurilgan. Lekin unda barcha narsa ramziy. Shamol ham, shamolli tun ham. Taqdir shamolida chirpirak bo`lib uchib borayotgan ikki norasida bola. Aka o`z qo`rquvi, taqdirga qarshi isyonini hivichni ayovsiz serpab namoyon etadi. Singil esa akasini chaqira-chaqira taqdir yo`llarida adashib qoladi. Birgina

shamolli kecha hayotning ko`p yillarini qamrab olgan holda hayot saboqlarini aks ettirmoqda.

Inson ko`nglida shamday zaif miltillab turadigan qiyomat kunining sodir bo`lishini doim sezib yuradigan bir hisning to`satdan alangalanib, kishining butin bir ichki olamini qamrab oladi. Go`yo yonib turgan shamdan alanga chiqib butun boshli uy yonib ketgandek. Insonning ko`ngil uyiga o`t ketgan. Inson ko`nglida favqulodda vaziyatlarda ana shunday yong`in sodir bo`lib turadi. Buni “apokalipsis” deyishadi g`arbliklar. Ya`ni kishi nazarida rostdan ham qiyomat sodir bo`lib, olamning Olloh yaratgan azaliy muvozanati uyg`unligi tartibsiz ravishda parchalana boshlaydi.

To`plamdagi “Sofiya” hikoyasida shu nom bilan aytiluvchi to`fonning qisqa muddat ichida qutirishi, asov toyday ko`kka intilishi, toshqin daryodan yutoqib-yutoqib po`rtana urishi, adadsiz kuch bilan og`ochlarni qars-qurs sindirishi, chaqmoq chaqib, g`aramlar, daraxtlarni lov-lov yondirishi tasvirlanadi.

Hikoyadagi sofiya to`foni inson ichki olamining tasviridir. Yozuvchi kuchli to`fonni ayollarning go`zal ismi bilan aytaydi. Asarda to`fon mayda detallarigacha tasvirlanadi. Yeru osmonning to`fondagi holati juda ta`sirli bayon etiladi. Bu tasvirlar ham asli ramziy bo`lib, inson ruhiy olamidagi evrilishlarning ifodasidir.

Isajon Sulton hikoyalarida peyzaj tasviri asar kompozitsiyasidan muhim o`rin egallab, asarning bayon uslubiga yorug` tasvirlar, romantik ruhiyat olib kirish barobarida, ramziy ma`no ifodalashga ham xizmat qiladi. Yozuvchining boshqa ijodkorlardan peyzaj yaratish mahorati shundaki, u butun bir asarni to`laligicha peyzaj asosiga qurishi mumkin. Bunda har bir detal, tasvir ramziylik asosida bo`lib, chuqur hayot falsafasi, umr haqida xulosa aks etadi.

I.2. Tabiat tasviri va unda muallif konsepsiyasi

Peyzaj asardagi tabiat tasviri va voqea-hodisa sodir bo'lgan joy haqida ma'lumot beradi. Isajon Sultonning hikoyalaridagi peyzajda poligarmoniya, politasvir diqqatni tortadi. Yozuvchi hech qachon, bitta holat bitta masalaga yopishib olmaydi.

Yozuvchining "Tilsim lashkari" hikoyasida peyzaj tasviri voqealar sodir bo'layotgan, joy, vaqt haqida ma'lumot berish barobarida muhim-badiiy estetik vazifa bajargan. Asar davomida peyzaj tasvirlarining bo'lib-bo'lib berib borilishi *dinamik peyzaj yaratish usulidir*. Bundan tashqari peyzaj asardagi qahramonlar ruhiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Joy tasviri (undagi "rang"lar) personaj ruhiyati bilan uyg'unlik kasb etishi ham, unga kontrast tasvirlanishi ham mumkin. Bu funksiyalarning qay birini asosiy o'ringa o'tishi esa muallifning konsepsiyasiga bog'liq.

Yozuvchi hikoyalaridagi qahramonlar tabiat bilan do'st tutinadi, "quyoshning taftiga peshvoz chiqadi", "nish urgan maysaga mehr" beradi, uning qahramonlari peyzaj tasviri ham tabiat tasviri, ham voqea-hodisa ro'y berayotgan joy tasviri vazifasini o'taydi. Masalan, yozuvchining "O'rgimchak" hikoyasidagi peyzaj tasvirini olsak tabiatning barcha-barcha hodisalarini o'z ko'zi bilan ko'rib, o'ziga xos mushohada qiladi. Unda *"Dunyoda bir o'rgimchak bor edi. Tong bilinar-bilinmas otib, qizg'imgir quyoshning iliq-iliq nurlari olamga yoyilib, shudring ostidagi turli- tuman o'tlarning hidlari sezilar-sezilmas tarala boshlagani ondan u yangi to'r to'qishga tushar edi"*.

Murodbaxsh tongning ilk daqiqalarini qarshi olishga muyassar bo'lgan yashash uchun va o'zidan zurriyot qoldirish uchun erta tongda mehnatga kirishayotgan mittigina o'rgimchakning hayoti peyzaj tasviri bilan uyg'unlashgan holda tasvirlangan. Tasvirdagi o'rgimchak to'ri ham asli ramziy ma'nosi ifodalaydi. Uning "O'rgimchak" hikoyasidagi *...Anchadan keyin shabada qattiqroq esdi-da, to'satddan to'rnining bandlarini yaproqlardan uzib olib, to'רגasi bilan qo'shib havoda aylantira-aylantira havoda uchirib ketdi. Bu uchish o'rgimchakka juda yoqadi*.

Bunday holat hech kimning hayoliga ham kelmaydi, ushbu jumlaning o`qigan kitobxonda hikoyadan katta badiiy-estetik ta`sirlanish his etadi. Chunki bu haqiqatdan ham go`zal bir tabiiy hodisa hisoblanadi.

“Kichkina pushtirang maxluqcha” hikoyasining so`ngida “ ... Yomg`ir shivirlar , shabadasi daraxtlarni chayqatar edi. Hozirgina yana bir epkin esib o`tdi. Ajabo, birgina daraxt chayqalar, qolganlari tek edi. Qizil tosh terilgan sahiga tomchilar chak-chak tomar, har yer, har yerida oqish ko`lmakchalar hosil bo`libdi. Ko`lmaklardan suv chachratib, bu mash`um joydan tezroq ketish uchun bog` tashqarisi tomon yugurdim”.

Ushbu peyzaj tasvirining hikoya so`ngida qo`llanilishini o`ziga xos jihatlaridan biri, bunda o`ziga xos bir ramziy ma`no ifodalangan. “ *Ajabo, birgina daraxt chayqalar, qolganlari tek edi .*” Ushbu jumla orqali yozuvchi ikki narsani nazarda tutmoqda, birinchisi – katoblepas va ikkinchisi hikoyaning bosh qahramoni roviy hikoyadagi bu ikki qahramon shabadada chayqalib turgan daraxt. Katoblepas va roviy oqimga qarshi suzgan “qahramonlar” yozuvchi shuning uchun ham ularni chayqalib turgan daraxtga qiyoslaydi.

Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon Sulton ramziy ma`no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo`shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson hayollari yetadigan joyigacha bo`lgan hikmatni aks ettirishga harakat qiladi. To`g`rirog`i, yozuvchi tabiat hodisalarini ma`noli va ta`sirli usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o`qib butun borliqni boshqarib turgan Ollohning irodasini rosmiyan his qilamiz.¹⁵

Haqiqatdan ham Isajon Sulton hikoyalaridagi tabiat tasviri orqali biz butun borliqni anglaymiz, yozuvchi hech kim e`tibor bermagan, hayoliga ham kelmagan mitti bo`lsada olamning go`zalligiga o`zining hissasini qo`shib turgan tabiat tasvirlarini shunday mohirona obrazli qilib tasvirlaydi. Masalan, “Qismat” hikoyasidagi ...Ildizning po`k qismida istiqomat qiladigan yana bir jonzot

¹⁵ P.Рахмат.Муножотдан Бокий дарбадаргача //(сўнги сўз)Султонов.И. Бокий дарбадар. Т., Ўзбекистон.2011. Б. 262-263.

semizqurtning hayoti ham to'satdan barham topadi, bir-ikki kun qimir etmay yotadi-da, buzoqbooshiga aylanadi, yana biroz vaqt o'tgach, qanot chiqarib dirillab uchishga tushadi. Tabiat naqadar fusunkor uning har jabhasi limmo-lim go'zaliklarga to'la. Yozuvchi bu bilan metamorfozalarga ishora qiladi.

San'at, jumladan, adabiyotda milliylik va umuminsoniylik xususiyati muhim masaladir. U irq, din, til kabi kishilarni ajratib turuvchi tabiiy-ijtimoiy to'siqlardan yuksakda turadi. Mamlakatlar, siyosiy tuzumlar, chegaralani butkul inkor etadi. Haqiqat shuki, qadimgi G'arb hozirgi Sharqdan o'rganib ulg'aydi. Endilikda Sharqning G'arbdan ta'sirlanishiga ham tabiiy hodisa sifatida qarash kerak. Hayotimizda ijimoiy ma'naviy burulishlar tufayli o'zgarayotgan adabiyotimizda G'arb adabiyotida mavjud an'analar ijodiy yangilanib bormoqda. Bu o'zgarish, ayniqsa, hodisalarni ifoda qilish tarzida aniqroq sezilmoqda. Xususan, avvallari voqealarni qahramon tilidan bayon qilishga xushlamayroq qaralardi. Bunday usul qo'llansa, albatta qahramon o'ziga yon bosadi, hodisalar xolis yoritilmaydi, deya tushuniladi. "Hatto", "Menning bolalik yillarim..." deya birinchi shaxs tilidan "O'tmishdan ertaklar" singari ajoyib asar yaratgan Abdulla Qahhordek ulug' san'atkor ham "Asarning birinchi shaxs tilidan yozish ijodkorni cheklab qo'yadi", deb yoshlarga maslahat bergan edi" deb xotirlagan adabiyotshunos Abdulla Ulug'ov. "Aslida esa asarning san'at darajasini hodisalarning kim tomonidan hikoya qilinishi emas, balki yozuvchining badiiy mahorati belgilar ekan", degan haqli xulosaga kelingan edi."¹⁶

Isajon Sulton asarlaridagi qahramonlar hayotda odamlararo qanday gapirsa, shu tarzda so'zlatilmaydi. Balki kishilar qanday gapirishni istasa, ko'nglida qanday o'ylasa shu tarzda gapirtiriladi. Yozuvchi bu orqali ularning tasdiq va inkor iskanjasidagi "men"ning ta'sirchan qofiyasini yaratadi. Azal-azaldan tasdiq va inkoru iskanjasida o'z "men"ini izlagan qahramon ko'rsatilgan adabiyotida ham, hozirgi G'arbning zamonaviy adabiyotda ham shaxsning fe'l-atvorini taftishlar hayot mohiyatini, inson umri ma'nosini anglashga eltadigan yo'l ekanligi ko'rsatilgan.

¹⁶ . Hamdam Ulug'bek. Tasvir tamoyillari // "Шарқ юлдузи", 1998, 6-сон. В.113.

I.Sultonning “Tood” hikoyasidagi Mamasiddiq pishiq obrazi, “Avliyo” hikoyasidagi Abdulqodir ota, “Bog`i Eram”dagi Xolmuhammad buva, “Turmush” hikoyasidagi er va xotin, “Xun” hikoyasidagi Erxonning ayoli Oyto`ldi obrazlari Abdulla Qahhor ta`riflagan “men” emas. Ular qilmish-qidirmishlariga iqror bo`ladigan, o`zini taftish tahlil qilib, azoblanadigan, tasdiq-inkor iskanjasida turgan qahramonlar. Yozuvchining eng katta yutig`i so`z orqali butun bir asardagi personajlarni, ularning nutqini, peyzaj tasvirini obraz darajasiga ko`tara olgan. I.Sultonning hikoyalarida personajlar nutqi o`ziga xos vazifa o`taydi. Ijodkorimiz hikoyalaridagi har bir personajning xarakteriga, dunyoqarashiga, tashqi ko`rinishiga, personajning yoshiga, asardagi holatiga qarab, ularga mos nutq tanlagan. Bilamizki badiiy asarda mullif nutqi, hikoyachi nutqi va personaj nutqi kabi nutqning turlari bor. Nutqning har uch turi yozuvchining deyarli barcha hikoyalarida uchraydi. Masalan, uning “Oydinbuloq” hikoyasidagi bosh qahramon nutqini, ya`ni personaj nutqini olsak uning o`spirinlik davridagi ya`ni o`n yetti yoshlik paytidagi nutqi bilan uni ulg`aygan oila qurgan va qirqni ostonasida turgan davrdagi nutqini solishtirsak anchagina bir-biridan farq qiladi. Va bu nutqlarda peyzaj tasviri ham yosh va dunyoqarashga monand o`zgarib boradi.

Hikoya qahramonining o`smirlik paytidagi nutqi bilan ulg`aygan davridagi nutqini farqlasak: *“Oydinbuloq yonida bir pari turar edi. Uning libosi...Nimasini aytay, yer qizlari bunday libosini tushlarida ham ko`rmaydilar. Ko`zlari yulduz edi. Bunday fusunkor ko`zlarni olamda faqat men ko`rganman. Boshqalar ham ko`rganlarida, xuddi men kabi devona bo`lar edilar. Suv tomchilari qanday tovlansa u ham shunday tovlanib turar edi. O`shanda qalbimni qoplab kelgan baxtu saodatni yana tuyarmikinman? Yuragim toza va tiniq tuyg`ular bilan limmo-lim to`ldi, xuddi samolarda uchub yurganday bo`ldim”*.

Har qanday inson oila qurishdan oldin orzular bag`rida osmonlarda uchib yuradi. Qizlar oq otli shaxzodasini kutadi. Yigitlar esa buloq yonida turgan pari kabi malakni kutadi. Bu holat ajdodlardan avlodlarga meros bo`lib o`tayotgan xazina kabidir. Shundan kelib chiqqan holda qahramonimiz ham xuddi shunday orzular olamida sayr qilib yurgan paytda unga pari ro`baro keladi ammo undagi

rahmdillik, soddalik va yigitlik g`ururi ustun kelib uni qo`ldan boy beradi. Xuddi shu jarayonni yozuvchi o`smirning qalbidagi pokiza tuyg`ularni uning yoshiga monand so`zlardan foydalanib sodda beg`ubor bolaning nutqini ifoda etgan.

“Oradan yillar o`tdi farzandlar ulg`aydi. Yaqinda bolalikdan birga o`sgan o`rtog`im meni to`yga aytib ketdi. O`g`lini uylantirayotgan ekan. Ertaroq bora qolay deb peshindan keyin yo`lga chiqdim. Ularning qishlog`iga kirib boryabmanu dilimda g`alati tuyg`ular uyg`onayotir. Shu o`ylar bilan borayotsam o`ngdagi darvoza g`iyq etib ochildida bir qo`lida go`dagini yetaklagan bir qo`lida qizalog`ini yetaklagan bir juvon chiqib keldi. Qoshu ko`zlari o`sha -o`sha, yuzlar o`sha-o`sha nigohida ham o`sha so`lim, tushdagiday sirli qizni eslatadigan nimadir bor...”

Bu jumladagi so`zlar yuqoridagi jumladan anchagina farq qiladi. Chunki hikoya qahramoning yoshi ancha ulg`aygan unda g`ayrati ko`klarga sig`mas o`spirining so`zlari emas, qirq yoshga yaqinlashib qolgan bir insonning so`zlaridir. Yozuvchining mahorati shundaki, personajlar nutqini shakllantirishda personajning yoshiga ham e`tibor bergan. Keltirilgan jumlada bir personajning o`spirinlik va erkaklik davriga mos nutq tanlagan. Ushbu jumlalardan ko`rinib turibdiki hikoya qahramoni o`spirinlik davrda parizodni boshqacha,ulg`aygan davrida esa boshqacha ta`riflamoqda.

E`tibor bersak qahramonning o`spirinlik davridagi nutqida shijoat, g`ayrat va qandaydir bolalarga xos sho`xlik tantilik sezilib turibdi. Qirqni qoralaganda esa anchayin bosiq, mulohazali, har bir nutqida yoshiga monand xotirjamlik va qaysidir ma`noda armon ham seziladi. Yoshiga monand nutq tanlay bilish yozuvchining mahorati hisoblanadi. Bu orqali personajning ruhiy holati ko`rsatib berilmoqda. Yozuvchi har bir inson ulg`aygan sari hayotni yanada teranroq anglashi, dunyoga nima uchun kelganligini va shu qisqagina umri davomida chiroyli, go`zal hayot kechirishi kerakligini personaj nutqi orqali ko`rsatib bergan.

Uning “Xazinabon” hikoyasida keltirilgan joy nomlari ham alohida badiiy-estetik vazifa bajarishga xizmat qilgan. Unda aziz avliyolar yashab o`tgan joy haqida ma`lumot berish orqali hikoyadagi sujet asosidagi voqealarga aniqlik kiritishga harakat qiladi. Arslonbob tog`lari, Arslon ota dahmasi, Buxoro kabi joy

nomlar keltirilgan. Bu joy nomlari oddiy joy nomlari emas, ular orqali bu yerda bo`lib o`tgan voqealarga o`yinlik kiritish mumkin. Shuning uchun ham yozuvchi bundan o`rinli foydalangan. Bundan tashqari ko`plab joy nomlari keltirilgan. Yozuvchi tabiat tasviri va joy nomlarini bir-biriga uyg`unlashtirib antiqa peyzaj tasviri yarata olgan.

“Sofiya” hikoyasida shu nom bilan aytiluvchi to`fonning qisqa muddat ichida qutirishi, asov toydan ko`kka intilishi, toshqin daryodan yutoqib- yutoqib po`rtana urishi, adadsiz kuch bilan og`ochlarni qars-qurs sindirishi, chaqmoq chaqib, g`aramlar, daraxtlarni lov-lov yondirishi tasvirlanadi.

Yozuvchi asarlarida to`fon, bo`ron, shamol, dovul, momoqaldiraq, chaqmoq, yashin, yomg`ir, bulut, yerning sho`rlanishi singari holatlar barchasi o`rin-joy, vaqt, fasl, holat haqida ma`lumot berish barobarida keyin ro`y beradigan voqelikdan ogohlantirish, unga ishora, qahramon ruhiyatini, xarakterini kashf etish, kabi qator vazifalarni ham bajaradi.

Ijodkorning “Qismat” hikoyasida “Hovli so`rlashgan, oqarib qolgan” bu jumla orqali yozuvchi ramziy ma`no ifodalgan. Ya`ni uch aka-ukaning enasi bo`lmish kampirning ko`zlari ojiz, uning umri poyoniga yetib qolgan degan tushunchani ifodalamoqda. Demak, yozuvchining hikoyalaridagi har bir tabiat tasvirini tahlil qilsak, mushohada etsak uning tag ma`nosida naqadar falsafiy fikrlar yotganiga ishonch hosil qilamiz.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton hikoyalaridagi tabiat tasvirida milliylik yaqqol aks etib turadi. Ya`ni peyzaj tasvirida adibning milliy va umuminsoniy konsepsiya asosida obrazlilik yaratishi tahsinga loyiqdir. Xarakterlar ruhiyatini berishda, hayot falsafasini aks ettirishda bunday yondashuv adib tomonidan muvaffaqiyatli uddalangan.

II. BOB. SHAMOL OBRAZI VA UNING YOZUVCHI G'ÓYAVIY-BADIIY NIYATINI IFODALASHDAGI ROLI

2.1. Isajon Sulton asarlarida shamol obrazi

Shamol obrazi talqinlari faqatgina zamonaviy adabiyot namunalaridagina uchramaydi. Biz bu tabiat hodisasini folklor namunalarida ham uchratamiz. Masalan, o'zbek xalq ertaklarida ham shamol o'ziga xos funktsiya bajarganiga guvoh bo'lamiz. Bolalar sevib o'qiydigan "Zumrad va Qimmat" ertagini olaylik. bu ertak ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi haqida. Ertak yakunida oqila qiz Zumrad va uning otasi tinch hayotga erishadi va murod-maqсадlariga yetishadi.

Biz bu ertakda shamolning o'rni va funksiyasi nimadan iborat ekanligini quyidagi parcha orqali ko'ramiz:

"... Chol qizni adashtirib kelish uchun tog'-toshlarni kezib, bir o'rmon ichida uzoq yurishibdi. Axiri quyuq soyali bir joyga borib to'xtalishibdi. Keyin chol o'tin kesgani ketibdi. Zumrad yolg'iz qolibdi. Shu paytda birdan shamol turibdi. Chol esa o'rmondagi bir katta daraxtga boltasini osibdi-da, unga og'irroq tosh bog'lab qattiq itarib yuboribdi. Bolta u yoqdan bu yoqqa urilib taqqillayveribdi.

Shamol juda kuchayibdi. Bolta shamol kuchi bilan uzoq vaqt daraxtga urilib to'q-to'q qilib tovush chiqaribdi.

Zumrad otam o'tin kesayotibdi, deb o'ylab otasini anchagacha kutibdi. Kech bo'libdi otasidan darak bo'lmabdi. Shamol to'xtabdi. Qiz o'rmondagi chuchmomalarni terib yuvib, bexosdan bolta osilgan daraxt tagiga borib qolibdi. Qarasa otasi yo'q emish".¹⁷

Yuqoridagi parchada birdan qo'zg'olgan kuchli shamol Zumrad qalbidagi qo'rquvni, ya'ni otasi yo'qligini bilgandan so'ng qalbida bo'layotgan yoqimsiz

¹⁷ Zumrad va Qimmat. O'zbek xalq ertaklari. T., "O'qituvchi" 2013.

holatni ifodalagan bo'lsa, shamol ta'sirida "to`q-to`q" qilib tovush chiqarayotgan bolta ovozi esa ana shu ko`ngilsizlikdan ogohlantirishdir.

She'riy asarlarda uchraydigan shamol obrazi o`zining estetik ta'sir doirasini nasriy asarlardagi ishtirokidan ko`ra kuchliroq ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shamol obrazi sabo, nasim, boda, yel kabi ko`rinishlarda mumtoz adabiyotimiz namunalarida ham uchraydi. Masalan, Alisher Navoiyning "Ey sabo" nomli g`azalida biz tahlil qilayotgan shamol obraziga juda katta badiiy-estetik funksiya yuklatilgan.

G`azalning quyidagi matlasida bevosita saboga murojaat qilinadi.

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimga ayt,

Yig`larimning shiddatin gulbargi xandonimga ayt.

Yuqoridagi baytda sabo inson qalbini ifoda etmoqda. Chunki sabo ya'ni shamol lirik qahramon qalbini jumbushga keltirmoqda va bu qalbni o`zi bilan o`zi gaplashishga, kechinmalarini qog`ozga to`kishga majbur etmoqda. Bu yerda yana shamol ana shu qalbning tilga kirishida ishtirok etgan vosita rolini ham bajargan.

Bu g`azalda lirik qahramon shamolning esishi yo`nalishiga qarab unga badiiy-estetik funksiya yuklaydi. Bu yerda saboga qarata xitob qilingan. Ayt so`zi orqali oshiqning o`z ruhiy holatidan ma'shuqasini boxabar qilish va uning ishqida ozor chekayotganligidan o`kinish holati yuzaga chiqadi.

Demak, bu g`azalda sabo lirik qahramondan ma'shuqaga xabar yetkazish funksiyasini bajargan. Aynan sabo obrazini Husayniy ijodida ham uchratamiz. Ijodkorning "Ey sabo, bergil xabar, sarvi ravonim keldimu..." deya boshlanuvchi g`azalida ham shamol obrazini uchratamiz.

Ey sabo, bergil xabar, sarvi ravonim keldimu?

Jon isi sendin kelur, ruhi ravonim keldimu?

Hajr dashtida mungrab qolmish erdi xasta jon,

Voh dengizkim, ul g`aribi notavonim keldimu?

Yuqoridagi g`azalda ham shamol darakchi vazifasini o`tagan. Ammo shuni farqlash lozimki, A.Navoiyning qalamiga mansub “Ey sabo” g`azalida oshiq o`z holi haqida xabarni ma`shuqasiga berishini saboga aytadi. Husayniy qalamiga mansub ushbu g`azalda esa oshiq o`z ma`shuqasi haqidagi xabarni keltirishini so`rab sabodan umidlanadi. Bu g`azaldagi saboga endi o`zidan emas, balki oshiqning o`ziga xabar keltirish vazifasi yuklangan. Bundan tashqari biz ana shu saboga murojaat orqali oshiqning qanchalar o`z ma`shuqasi ishqida sog`inchdan iztirob chekayotganini ko`ramiz. G`azaldagi bunday ruhiy holat ifodasi aynan shamol obrazi vositasida yuzaga chiqqan.

Quyidagi Shermuhammad Munis Xorazmiy qalamiga mansub g`azal baytida ham shamolning yana bir turi qo`llanilganini va u ham o`ziga xos badiiyatni ochish uchun xizmat qilganligini ko`ramiz.

Sarsari ohimni, ey gardun, qilursan tund-u tez,

Mash`ali xurshidi raxshoning kerakmasmu sanga?

Bu yerdagi sarsari ohim birikmasida biz tashbehning kuchli turidan foydalanganini ko`ramiz, ya`ni lirik qahramon bu yerda tashbehni sarsari kabi ohim yoki sarsariday ohim tarzida emas, yuqoridagi holatda beradi va bu orqali shoir o`z lirik qahramoni qalbidagi notinchlik va kuchli g`alayonni aks ettirishga muvaffaq bo`ladi. Chunki sarsari bu – daydi, kezib yuruvchi shamol ma`nosidadir.

Shamolning aynan bu turidan foydalanish orqali ijodkor lirik qahramon holatini yorqinroq tasvir etishga erishgan.

Munis Xorazmiyning ijodiga mansub “Kimnikim do`st dedim...” nomli g`azalida ham biz shamolning o`ziga xos badiiy-estetik funksiyada kelganini ko`ramiz:

G`unchayi xotirim ochmoqg`a nasimi tiladim,

Goh otlig` yel-u bodi xazon topdim oni.

Yuqoridagi misralarda sog`inchdan iztirob chekayotgan oshiq holati emas, endi bu yerda do`stdan aziyat ko`rgan lirik qahramon iztiroblari ko`zga tashlanadi. Bu baytda qo`llanilgan ***nasim yel-u bodi xazon*** ham endi darakchi ma`nosida emas, qalbdagi shirin orzu shuning bilan birgalikda, o`kinch va nadomatni o`zida aks ettirgan. Chunki nasim – mayin, yoqimli shamol va lirik qahramon aynan uni tilamoqda, ya`ni undagi xohish, orzu va istakning yoqimli ifodasi nasim orqali yorqinroq namoyon bo`lmoqda.

Baytning ikkinchi misrasida qo`llanilgan yel-u bodi xazon esa o`z do`stlaridan, yaqinlaridan va umuman o`zga qalblardan kutgan natijasiga erisha olmagan, natijada bundan o`kinib afsus chekayotgan lirik qahramon ruhiyatini yaqqol o`zida aks ettirgan.

Shamol obrazining yuqoridagi kabi ko`rinishlari yana bir qator mumtoz va zamonaviy adabiyotimizdagi she`riy san`at namunalarida ham uchraydi.

Masalan, Shavkat Rahmon qalamiga mansub “Baland daraxtlar” nomli she`rda shamolning o`ziga xos turi va ko`rinishini kuzatamiz.

Baland daraxtlar bor,

Baland daraxtlar –

Yerning yuragidan kuch quvvat so`rgan,

Baquvvat, chatishgan shox-shabballarda

**Daburu Po`yiroz** yo`lini to`sgan

Cheksiz g`am g`ussalar keltirar **Dabur**,

Mislsiz qiynoqlar yuborar po`yiroz.

Pastda past daraxtlar oralarida

Samum sabo bilan o`ynashadi soz...

Samum –olov shamol,

Sabo nafisdir,

Kezarkan vodiyning bog`-rog`larini,

Harorat, nafosat domida toblar

Pastak daraxtlarning g`o`r shoxlarini

Past daraxtlar esa

Kunni to`sdi deb,

Egallab oldi deb yuksak olamni,

Baland daraxtlarning g`iybatin qilar

Har o`tgan yo`lovchi elga zorlanib

Sho`rliklar,

Bilmaslar o`sha yuksakda

Yovuz shamollarga tutib boshlarin,

Vodiyda gul tukkan past daraxtlarning

Umrini asragan mard qardoshlarin

Osmon –qasirg`alar,

Muzlar maskani,

Buyuk olishuvlar qizigan maydon,

Dunyoda bor ekan baland daraxtlar

Yurtimiz bog`lari bo`lmaydi vayron

Baland daraxtlar bor,

Qulaganda ham

Hech kimga aytmaslar qiynoqlarini,

Hech kimsa eshitmas,

Eshita olmas

Baland daraxtlarning ingroqlarini.

Ushbu she'rda shamolning bir necha turlari qo'llanilganini ko`ramiz. Masalan, Daburu, Po`yiroz, Samum, Sabo kabilar.

Avvalo, Shavkat Rahmon she'rlarini o`qir ekanmiz, biz bu ijodkorning aksar she'rlarida shamol obrazining bir oz salbiylik, tushkunlik va inson g`am-anduhlari sifatida talqin etilganligini kuzatamiz.

Shoirning "Baland daraxtlar" she'riyatidagi Daburu, Po`yiroz, Samum kabi bizga bir oz notanish bo`lgan shamol turlari orqali ezgulik va fidoiylikka qarshi qo`yilgan yovuzlik va xavf-xatar ifodalangan.

Bu she'rda ijodkor Daburu, Po`yiroz va Samum kabi inson uchun yoqimsiz bo`lgan shamol turlarini jonlarga huzur va orom baxsh etuvchi saboga qarama-qarshi qo`yadi. Chuqurroq nazar tashlasak, hammasining nomi bir, ya'ni shamol nomi ostida birlashgan bu tabiat hodisalari orqali inson va uning farovon hayoti uchun xavf tug`diruvchi va unga rahna soluvchi illatlar hamda ulardan farqli ravishda sabo orqali esa ana shu xavf-xatardan holi bo`lgan insonning huzur-halovati ifodalangan.

Bundan tashqari yuqoridagi kabi xavfli shamollarning yuksaklarda esishi baland daraxtlarning ko`kka bo`y cho`zib o`sha shamollarga duch kelishi va bu shamollarning daraxtlarni yuksakda toblab, shoxlarini u yoqdan bu yoqqa egib, xuddi taqdir kabi sinayotganini, bu yerda shamol taqdir sinovi vazifasini ham bejarayotganligini ko`ramiz.

Shavkat Rahmon ijodiga mansub “Qo`qon shamoli haqida o`tmishdan bir rivoyat” she`rida shamolga bevosita murojaat bor.

Eski o`zanlardan keldi guldirab

ulkan to`zonlarning jinnin hammoli.

O`ylab yurgan edik seni o`ldi deb,

haliyam bormisan,

Qo`qon shamoli.

I.Sulton hikoyalari ham shakl va mazmun uyg`unligida alohida ajralib turadi. Yozuvchi asar yozishda tanlagan mavzusining mazmun mohiyatiga qarab, shakl tanlaydi. Masalan, ma`lum bir davrda ro`y bergan voqea-hodisani bayon etmoqchi bo`lgan ijodkor romanga murojaat qiladi. Demak, mazmun birinchi paydo bo`ladi shakl esa uni ro`yobga chiqaradi. Shakl mazmunsiz bo`lmaganidek, mazmun ham shaklsiz mavjud bo`la olmaydi. “Hikoyada tasvirlanayotgan voqealar qisqa vaqt ichida kechishi, hajman kichik, sujeti sodda, ishtirok etuvchi personajlar soni kam bo`lishini taqozo etadi”¹⁸.

Bu shakl hisoblansa, unda ko`tarilgan mavzu uning mazmun mohiyati ana shu asarning mazmuni hisoblanadi va bunda shakl va mazmun uyg`unligi vujudga keladi. I.Sultoning “Ismsiz qahramon haqida hikoya” nomli hikoyasi, ma`lum bir davrda ro`y berib o`tgan, hech kimi yo`q noma`lum bir yigitning Xanzu qabilasiga ko`rsatgan qahramonligi va uning sharaflari o`limi, qabila xoqoni yigitning dafn marosimini tantanavor ruhda o`tkazgani haqida hikoya qilinadi. Bu hikoyaning mazmunini tashkil etsa, uning qisqa vaqt ichida ro`y bergan voqea-hodisa ekanligi, hajman kichikligi, sujeti soddaligi, ishtirok etayotgan personajlar soning kamligi uning shaklini namoyon qiladi. Ko`rinib turibdiki bu hikoyada shakl va mazmun uyg`unligi bir-birini to`ldirib kelgan. Ijodkorning shu bir

¹⁸ Қуронов Д., МамажоновЗ., Шералиева М. Адабиётшуносликка кириш. Т., Академнашр. 2013. Б.402.

hikoyasi orqali uning barcha hikoyalarida shakl va mazmunning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin.

Isajon Sulton hikoyalarining tili sodda tushunarli bo'lishiga qaramay, asarning badiiy-estetik funkisyasini oshirish bilan chegaralanmasdan, o'quvchiga informatsiya berish vazifasini ham bajaradi. Oddiy informatsiya emas - obrazli informatsiya. Isajon Sulton hikoyalarida ayniqsa, peyzaj tasviri berilgan o'rinlarda, tabiatning hech ko'z ilg'amas sir-sinoatlari haqida kitobxonga informatsiyalar yetkazadi. Masalan, "Avliyo" hikoyasining peyzaj tasvir berilgan so'zlarga e'tibor qaratsak:

1. Yog'ib o'tgan yomg'ir ortidan esgan shamol bultirgi xazonlarni uchirib olib kelib, loyga qorishtirgan edi-bir necha kun avval yomg'ir yog'ganligi haqida;
2. Hozirda bahor faslining kirib kelayotganligi haqida;
3. Shamol kecha kechqurin tingan - Yomg'irdan keyin esgan shamol kechqurin tinganligi haqida;
4. Endi esa Avliyo ota tog'ining cho'qqilari tomondan sovuq shabada esardi - Asar qahramonlaridan biri Avliyo otaning tog'da yashashi haqida;
5. U odamning etini junjuktirsa-da, biroq qaydadir muzlagan toshlarni yorib chiqqan boychechak iforini olib kelib dimoqqa tutar, kishining ko'ngliga toza xislarni solar edi-bahor yangilanish-yosharish faslining elchisi boychechak ifori, insonlarga yashashga intilish, hayotga muhabbat kabi toza xislarni solguvchi ekanligi haqida.

Bundan ko'rinib turibdiki, I.Sulton ushbu jumla orqali voqealar qachon, qaysi faslda, qayerda qanday ob-havo sharoitida ro'y bergani haqida axborot bermoqda.

Isajon Sulton juda serqirra ijodkor, unning hikoyalari sodda bo'lsada, undagi mazmun-mohiyat, falsafiylik, estetik quvvat kitobxonlarni o'ziga jalb qiladi. Hikoyalarida hayotda yashayotgan har bir insonning ong shuurida saqlanib yotgan, uni tashqariga chiqarishga ruhan kuchi yetmagan o'y-fikrlari, orzu va armonlari,

olamdagi bo'layotgan har bir o'zgarishga o'zining shaxsiy fikrlarini bildirishga iymanayotgan, yoki botina olmayotgan insonlarning qalb oynasi aks ettadi, desak adashmaymiz. Bunday holat uning “Turmush”, “O'rmondagi kulba”, “Otamga nimadir bo'ldi”, “Oydinbuloq”, “Ozor” , “Sog'inch”, “Suvdagi kosa”, “Qo'riqchi” va boshqa hikoyalarida aks etgan. Tom ma'anoda yozuvchimiz o'zining barcha hikoyalarida insonlarning ichki dunyosini ochib bergan.

Isajon Sulton hikoyalarida shamol motivdir. Uning “Ozod” romanida ham shamol obrazi o'ziga xos badiiy-estetik funksiyani bajarishga xizmat qilgan. Asardagi birinchi aksda asarning 10-sahifasidan sarsari shabada birikmasi qo'llanilgan. Shamolning bu turi asarda ko'ngil notinchligini ifodalash uchun ishlatilgan. Masalan:

... Ayol cho'g'larni ko'sov bilan yerga uydi-da, ustiga kul tortdi.

Yomg'ir isini anqitib, sarsari shabada esa ketdi.

- Hay, ovsin, hormang, - qo'ra ortidan bo'y cho'zdi qo'shni ayol. –patir yopyapsizmi deyman?...

Yuqoridagi parchada qo'llanilgan sarsari shabada birikmasidagi **sarsari** so'zi etimologik jihatdan fors tilidan olingan bo'lib, “bosh keti yo'q”, “bebosh” kabi ma'nolarni anglatadi.

Shundan kelib chiqib, bu turdagi shabadani asar syujeti bilan birgalikda talqin etadigan bo'lsak, non yopayotgan ayolning ko'ngli nimadandir notinch va behalovat ekanligini, ko'nglida qandaydir bezovta o'y-fikrlar va hadiklar kechayotganini ko'rishimiz mumkin. Fikrimizcha, sarsari shabada ayol qalbidagi ana shu bezovtalikni ochib berish funksiyasini bajargan.

Bundan tashqari, aynan mana shu birinchi aksda “shamol” nomli hikoya berilgan bo'lib, unda tabiat hodisalarning orasida eng sershovqin va shiddatlisi bo'lgan shamol tasviri beriladi. Bunda dastlab shamol ko'kda, osmonda tasvirlanadi. Bu yerda oq bulutlar, samoviy otlar va ularning hilpirab turuvchi yo'llari shamol tasviri orqali juda go'zal ifoda etiladi. Mana shu tasvirni inson

qalbining eng tubidagi orzuga qiyos etish mumkin. Chunki ana shu tasvirlardan so`ng asar bosh qahramoni Ozod o`zi olib kelishni orzu qilgan baxt lolasini o`sha bulutlar chiqib kelgan joyda o`ssa kerak deb xayolidan o`tkazadi. Demak, Ozodning xayolidan o`tgan mana shu fikrni berishdan avval yuqorida ifoda etilgan yuksaklardagi shamol tasviri, fikrimcha, Ozod qalbidagi orzu bilan hamohanglik kasb etadi va uning istagini kitobxonga go`zal bir qiyofada ifoda etish uchun xizmat qiladi. Mana shu tasvirlar davomini o`qir ekanmiz, endi shamolning haybatli tus olganligini ko`ramiz. Bu yerda tasvirlangan kuchli va dahshatli shamol orzuga to`la va shiddat bilan o`z orzusi, maqsadi, o`zligini anglash sari intilayorgan inson qalbini ifoda etish vazifasini o`tagan. Tasvirlar oxirlab borganida esa shamol bo`lib o`tgandan so`ng tevarakning o`ziga kelib jonlanganini, so`linqirab qolgan barglarini ohista shitirlatib, shabada esayotganini ko`ramiz. Bunda shamol qahramon ruhiyatidagi evrilishlarni ifodalashga xizmat qilgan.

Birinchi aksdagi “Yo`l ko`rsatuvchi” deb nomlangan hikoyadan boshlab, endi shamol va uning tasviri boshqa bir funksiyani bajara boshlaydi. Ya`ni u endi Ozodga do`st, hamroh tutinadi va uni ma`nolar xazinasini tomon yetaklab boradi. Aynan shu jihatdan professor A.G`ofurov bu asardagi shamolni oddiy shamol emas, balki tafakkur shamolidir deb aytadi. Keying fikrlarining davomida esa romandagi barcha qiyofalar va obrazlar Ozodning o`zida deb o`ylash tarafdori ekanligini aytadi.

Demak, shundan kelib chiqib xulosa qilsak, shamol ham Ozodning o`zi bo`lsa, biz yuqorida nazarda tutgan qalb ham uniki. Biz Ozod va uning qalbi orqaliu esa butun bashariyat qalb kechinmalarini idrok etishimiz mumkin.

Bu asarda shamol obraziga turli vazifalar yuklangan.

Masalan, asarning 2-aks bobidagi “O`g`il” hikoyasida shuncha hodisalar orasida shamollarga havas qilar edim”, degan jumla keladi. Bu yerda endi o`z ruhiy holatini tasvirlayotgan qahramon barcha tabiat hodisalari orasida aynan

shamolga havas qilyapti. Shamolni tutib ham, unga yetib ham bo`lmaydi. Demak, fikrimizcha, bu yerda qahramonning **armonga aylangan, ushalmagan shirin orzulari ifodasi** bor. Bunday ruhiy holatni ochib berish funksiyasini ijodkor biz yuqorida keltirgan sabablarga ko`ra ham aynan shamolga yuklagan.

Asardagi “Uzumzorlar egasi ” hikoyasida shamolni, **yelni inson umriga qiyos etganini** ko`ramiz. Demak, shamol umr ramzini ham ifodalamoqda. 62-sahifada esa shunday parcha berilgan:

“U siz bilgan tabiatdan o`zga, hozir u yerlarda shamol esmaydi. Hamma narsani mayin yorituvchi yog`du elanadi, xolos...”

Ushbu parchada tilga olingan esmay qo`ygan shamol bu, fikrimizcha, insonning kuchga to`lgan, shijoatkor yoshlik davriga ishora. Chunki hikoya qahramoni o`zining o`y-xayollarini, yoshi qirqdan oshgan kishining ruhiy iztiroblarini beradi va shu asnoda ana shu g`am-anduhlar ichra yoshlik shiddatining yo`qolganiga ishora qiladi.

...Paydar-pay shabada esib qanotida ilg`anmas shivirlarni olib keladi:

Qaydan kelayotir uyur-uyur g`am?

Qaydan kelayotir palaxsa xasrat?

Yuqoridagi “paydar-pay shabada” asar boshida tahlil etganimiz “sarsari shabada” kabi qalb notinchligini va shu bezovta qalbgga sarobga, armonga aylangan orzualrdan va bu armonlarning qayg`usidan xabar keltirarmoqda.

Romanning “Dilorom hikoyasi” qismida

... Agar shamol essaydi, yashinlar tog`-u tosh bag`rini tilib sanchilardi, bag`irlaridagi suvni jala qilib yog`dirardi.

...Butun bu sassiz makon qurib-yelib esuvchi o`sha xaloskor shamolga intizorday...

...Meni unga, uni menga yaqinlashtiradigan shamolda taqdriim o`zgarib ketishini juda uzoq vaqt shu qoramtir makonda turganim mazmun kasb etishini, hayotim yangi va ajoyib ma`nolarga to`lishini ich-ichimdan sezaman. ¹⁹

Yuqoridagi parchada hikoyachi qahramon o`z orzusiga yetishishning birgina yo`lini shamollarda ko`ryapti. Shamollardan umid qilyapti. Demak, bu yerda **shamol umid ramzini** ifodalamoqda.

Romanning “Aravaga qo`shilgan otlar” hikoyasida:

“... Dashtning sarsari shabadasi yom`gir isini olib keldi. Saldan keyin bahor jalasi quyib yubordi. Tomchilar otlarning chiroyli yollarida, uzun-uzun kipriklarida-yu qop-qora ko`zlarida yiltiradi... ”, - degan parcha mavjud. Bu yerdagi sarsari shabada endi **kelajak haqida darakchi** vazifasini o`tamoqda.

“...G`ildiraklar suv tekkani bois og`ir g`ijirlab-g`iyqillaydi. Osmonda tund, kulrang bulutlar turib qolgan, ular suzmaydilar. Bu havoda ne uchundir shabada ham yo`q, tevarakni sovuq egallab, turg`un bo`lib qolganday. Bor-yo`q manzara shu-kimsasiz, yo`lsiz dala, uzoqda o`sgan qandaydir bargsiz dov-daraxt, tep-tekis ko`rngani bilan aslida o`nqir-cho`nqir dasht va shu dashtda aravani hanuz tortib borayotgan ikki ot...”

Bu parchadagi tasvirda shabadaning ham yo`qligi syujet tasvirida turg`unlik, tushkunlikning hukm surayotganligini, otlarning taqdiri o`zgarishi uchun biror ilinj ham yo`qligi, bir xil kechayotgan turmush tarziga ishora. Shabadaning yo`qligi otlar hayotidagi umidsizlik va turg`unlikni, harakatsizlikni ifoda etmoqda.

Bundan tashqari quyidagi parchada qo`llanilgan iliq shabada birikmasiga e`tiborimizni qarataylik: “... Ikki toychoq onalarining ham jon berganidan hali bexabar, nariroqda qor titkilab, yemish axtarmoqda edilar.

Bu tong o`zi bilan iliq shabadani olib keldi, qaylardadir muzlar yorildi, uning esishida bahor nafasi bor edi.

¹⁹ Isajon S. Ozod. T., Sharq, 2012. B.135.

Toylar hali yosh edilar, shu sabab musibatni tez unitishdi. Yana bahor keldi, tuproqlardan maysalar unib chiqdi, qushlar shodon chug`urlashdi. Tevarak iliq epkinlarga to`ldi, ko`kda qaldirg`ochlar uchdilar, musichalar kukulashib, in qurgani joy axtarishdi”.

Yuqoridagi parchada keltirilgan iliq shabada birikmasi zamirida inson boshiga qanday musibat tushmasin, hayot baribir davom etaveradi, bunday musibatlar ham quvonchli kunlar ham o`tib ketishini, umr davomiyligini ifoda etish funksiyasini bajargan.

Romanda murtad bo`lgan kishi haqida hikoya bor. Ushbu qismda muallif murtadning xatti-harakatlarini, ruhiy holatini ushbu hikoyada quyidagicha ifodalaydi:

“...Bulutlar orasida yenish tilanib chiqillayotgan qandaydir qushning polaponini ushlab oladida, tiriklay g`ajiy boshlaydi. Og`zida patlari bilan yalanadi, keyin yana yo`lida davom etadi. Suvsaganida yantoqning poyasini uzib olib chaynaydi. Shu ketishida toshhaykal oldidan chiqib qoladi. Ma`suma bir qizni eslatadigan tosh oldida nimanidir eslamochiday peshonasini tirihshtirib uzoq o`ylanadi, biroq eslay olmaydi, bundan alami kelib: “Ho-ho-ooo!” deb cho`zib qichqiradi. Uzundan-uzoq bu qichqiriqni shamol olib ketadi, bu qichqiriq akslanmaydi, balki havoga va qumga singib yo`q bo`lib ketadi...”

Murtad so`zining o`zi iymondan qaytgan degan ma`noni anglatadi. Iymondan qaytgan bu kishining hamma urinishlari befoyda, u hech narsani eslay olmaydi. Ushbu qahramonning mana shunday samarasiz urinishlarining bari befoyda ekanligini ijodkor qisqa holda bu qichqiriqni shamol olib ketardi tarzida beradi.

Asarning “so`nggi aks”ida bahaybat shamol tasviri beriladi.

“...Darhaqiqat, bu bahaybat shamol edi, ovozi tepalarda ham eshitilardi. U esgan mahalda hamma narsa tilga kirib, ovoz chiqarib nido qila boshladi. Hamma narsani ovoz chiqarishga majburladi, bu mahallaning yagona hokim o`zi bo`lib

oldi, uning bahaybat bosimi ostida ingramagan, nola qilmagan bironta narsa qolmadi...

Bitmagan imoratlarning sinchlari oralab esdi, bu shamolda qolgan kishilar xuddi mast kishi kabi edilar, chayqala-chayqala manzillari tomon borardilar. Uzumzor egasining butun savatini yer bilan bitta qildi u, bog` sahni uzilgan novdalar va hali ko`kimtir shingillar bilan to`ldi.

So`ngra yer yuzasi top-toza bo`lib qoldi, changsiz taqir yer uzra endi quruq ovoz chiqarib esaverdi shamol.

Bu talato`pda ko`z kishi hazilakam qo`rquvga tushmadi. Shamol uni gandiraklatib yubordi, u cho`k tushib qoldi. Yaxtagining etaklari, belbog`I va sallaning ichi yulqilanar edi. Kim bilsin, shamolning qanotlarida yana nimalarni his qildi ekan.

Aslida Ozodni yuksakka ko`tarish uchun esgan shamol qishloqda mana shunday o`zgarishlar yasadi” . (157-158-bet)

Bu yerda endi shamol taqdirilar rang-barangligini ifoda etmoqda.

Bu asarda shamol va unga sinonim so`zlar 173 marotaba qo`llanilgan. Aynan mana shu raqamlarning o`zi ham asar g`oyaviy-badiiy ko`lamini ochib berishda shamol obrazining tutgan o`rni va ahamiyati qay darajada ekanligini ko`rsatadi.

Shamol obrazi Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanida ham o`ziga xos badiiy-estetik funksiyani ifoda etgan. Bu asarda ijodkorning “Ozod” romanidan farqli o`laroq, shamolning bo`ron deb atalmish eng kuchli shakli aks etgan. Shamolning bu turi tanlanishida ham o`ziga xos ramziylik bor.

Tabiiy holatda shamolning etlarni junjiktirib, muzdek esishi inson organizmi uchun yoqimli hodisa. Xalq tilida garmisel deb nomlanuvchi qaynoq shamolni esa odam tanasi xishlamaydi.

“Boqiy darbadar” romanidagi shamol bilan bogʻliq dastlabki fikrlar samum, yaʼni Sahroi Kabirda esadigan va jon zoti borki barini kuydirib –eritib halok qiladigan qayniq shalmol ²⁰ nomi bilan beriladi.

Demak, bu shamol yoqimsiz bir jarayon yoki voqea-hodisaning ifodasi. Bu fikrimizni asardan keltirilgan quyidagi parcha misolida koʻramiz:

“ ...Otaxon shamolning togʻlarda avliyo bilan suhbat qurganini, shahri Haybar xarobalarining qumlarini toʻzgʻitib-sochib oʻtganini nevarasiga aytmadi. Zero, cholning hadigi bor edi. Shamolning turlarini-yu vazifalarini u yaxshi bilardi. Lekin buning bagʻrida yomgʻirlarni olib keluvchi rahmat epkini emasdi. Gullarni toʻkuvchi va mevalarni changlantiruvchi rizq shamoli ham, fasllarni oʻzgartiruvchi mavsum shamoli ham emasdi. Aksincha, boshqa epkin edi. Uning esishida jazo shiddati borga oʻxshardi. Shu bois ham bu haqda indamadi, aksincha, agar shunday boʻlib chiqsa, oʻziga ham, qavmiga ham, shu bolakayga ham marhamat yetajagidan umidlandi”. (16-bet)

Biz asar yakunida ana shu jazo misol esayotgan shamol otaxon va uning nabirasi-yu, butun qavmini halok etib, qum ostiga koʻmib tashlaganini koʻramiz (91-92-betlar).

Yuqoridagi parchadan xulosa qiladigan boʻlsak, bu shamolda behalovatlik va barcha-barcha hadig-u iztiroblarga barham beradigan soʻnggi umid ramzi bor. Negaki, bu otaxon loʻlilar qavmining kattasi edi. Asarda keltirilishicha, loʻlilar buyuk maqsad bilan yoʻlga chiqqan-u, keyinchalik avlodlar yangilanib oʻz maqsadlarini unitib qoʻygan qavm. Shundan buyon ular hamon darbadar kezadilar.

Biz yuqorida aytib oʻtgan barchasiga barham beradigan noiloj umid ana oʻsha darbadarlikka nuqta qoʻyishdir. Oʻlim – inson uchun qoʻrqinchli, shu sababdan ham otaxon qalbida oyoqqa turgan bu shamoldan qoʻrquv bor. Lekin darbadarlik, yaʼni butun hayotini besamar va mazmunsiz daydish bilan oʻtkazish oʻlimdanda qoʻrqinchliroq va dahshatliroq. Otaxonning bu shamoldan oʻziga va

²⁰ Sulton I. Boqiy darbadar,- T.: “Oʻzbekiston” 2011. 11-bet

qavmiga marhamat yetajagini o`ylab umidlanganligi ham shundandir. Demak, inson qalbi, o`y-xayollari bilan bog`liq kechinmalarni yuzaga chiqarishda ijodkor mana shunday shamol turidan mohirona foydalangan.

Ijodkorning “Ozod” romanida bosh qahramonni olg`a yo`llovchi ezgulik sari eltuvchi shamol obrazi berilgan bo`lsa, “Boqiy darbadar” da endi shamolga yuklangan badiiy-estetik g`oya bir oz keskinroq tus olgan.

Shamolda sovrilish, yo`q bo`lish, joyidan qo`zg`alish jarayonlari sodir bo`ladi. Ya`ni shamol narsa-predmetning muqim holatini o`zgartirishga, o`sha o`z o`rnida yo`qlik kasb etishga majbur qiladi. Biz shamolning bunday xususiyati orqali ifodalangan ramziylikni quyidagi parcha va uning tahlili misolida ko`ramiz.

“... Asrlarni to`zg`itib esayotgan vaqt shamolida inson bunyod etgan har qanday narsa albatta buzilib –payhon bo`lib ketmoqdadir. Hayot uchun qulaylik tug`diradi, deb hisoblangan narsalar tabiatining mutlaq nizomini buzmoqdadir. Atrofdagi har bir narsaning nizomi va murodi bo`lgani holda men o`zimning mavjudligimdan bir maqsad ko`rmayotirman. Tevarakdagi har narsaning hosilasi bo`lgani holda, men nima hosila berishim kerakligini bilmayman” (37-bet).

Sun`iy urchitilgan odam tilidan qilingan “murojaat”da aytilgan ushbu fikrlardan shu narsa ko`rinib turibdiki, insonlarning yaratgan ko`rsatib qo`ygan yo`ldan ozib, uning azaliy qonuniyatlarini buzishga urinib yaratayotgan sun`iy odamlar-yu, bunday genlarni yaratish yo`lidagi barcha urinishlarining yakuni qanday bo`lmasin, baribir befoyda va shunday samarasiz har qanday urinish yo`qlikka mahkum ekanligini anglaymiz.

Romandagi Atlantika ustidan Markaziy Osiyoga esayotgan kuchli bo`ron va umuman, shamol obrazini biz, dunyoning turli tomonlaridan Markaziy Osiyoga, xususan, bizning mamlakatimizga, millatimizga va keng ma`noda esa bashariyat ong-u shuuriga kirib kelayotgan shiddatli g`oyalar tajovuzi, mafkuralar manzarasi deb ham qaray olamiz.

Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga egadir".²¹

Asardagi quyidagi parchaga e'tibor qarataylik:

"...Shuningdek, Misrda qoyalarni yo'nib ishlangan uylardan topilgan anjomlar u yerda yashgan kishilarning, darhaqiqat, bahaybat gavdali, kuchli kishilar bo'lganini tasdiqlaydi. Rivoyatlarga ko'ra ularni kuchli shamol halok qilgan edi..." (72-bet)

Xulosa qiladigan bo'lsak inson ongiga qilingan har qanday tajovuz uni ich-etidan yemiradi, halokatga duchor etadi. Uning halokati ayanchli bo'ladi. Yuqoridagi parchada ham ana shu ma'nodagi ramziylik bor. Chunki ijodkorning maqsadi uzoq o'tmishda bo'lib o'tgan rivoyatni shunchaki hikoya qilishdan iborat emas. Aynan mana shu hikoyada bahaybat, gavdali kishilarni halok etgan kuchli shamol bo'yoqdor ranglar bilan alohida ta'kidlab ko'rsatilgan. Bu esa ramziylikka oid yuqoridagi fikrimizning o'ziga xos tasdig'idir.

Chuqur ramziylik kasb etuvchi shamol obrazi yozuvchining "Boqiy darbadar" romanida 95 marta qo'llanilgan. Ushbu obraz talqinini biz Isajon Sultonning nafaqat yuqoridagi ikki romanida balki kichik hikoyalari misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Masalan, ijodkorning "Shamolli kecha" hikoyasini olaylik. Asar syujeti o'z janriga mos holda juda ham qisqa. Aka-singil buvisinikiga borish uchun yo'lga chiqadi. Ular yo'lga chiqishganda to'satdan kuchli shamol turadi va aka buvisinikiga yetib borganda ortidan kelayotgan singlisining yo'qligini ko'radi. Bir qarashda juda oddiy va qisqagina ko'ringan bu hikoyaning badiiy-esteik ta'sir kuchini uning tasvir ko'lamini yuksakligida ko'ramiz.

Masalan, "... *Shamol esa goh yer betiga tushib, goh yuksaklarga ko'tarilib g'uvillab esardi.*

²¹ Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch,- T., 2008. 113-bet

Shamol bu makonlarda to'satdan qo'zg'aladi. Tog' oralarida yetilib o'ngirlar orasidan o'kirib vahshat solib chiqib keladi. Qishloqlarning naridan beri ohaklangan devorlaridagi changlarni uchirib, tomlarning qumlarini sochib, ko'cha tuprog'ini to'zg'itib esaveradi.

Makkapoyalarni og'onatadi, kir o'ralarda hushtak chaladi, suvlarni chayqatdi, tepalarda g'uvillaydi, pastga tushganida chechaklarni-yu cho'psavatlarni ag'angatib, yumalatib yuboradi. Dala dashtdagi yumron inlarini qum bilan ko'madi, ovsarroq qushlar qurgan uylarni buzib tashlaganida jajji polaponchalari chirqillagancha yerga qulab tushib, vahshiy hayvonlarga yem bo'lishadi''.

Yuqoridagi parchada ifodalangan kuchli shamol inson taqdiri, hayot va uning turli sinovlari ramzidir. Xoh kichik bo'lsin, xoh katta, hayot sinovlari kech kimni ayab o'tirmaydi, o'zining xohlagan ko'yiga soladi, istagan tomoniga uloqtiradi. Bu sinovlardan o'ta olish uchun insondan chidam, sabr va jasorat talab etiladi.

Ushbu hikoyada aka qancha qiyinchiliklar bilan buvisining uyiga yetib shamolli kechada u singlisidan ayriladi. Demak, shamol bu yerda ayriliq, qismat, taqdir va taqdirning ayanchli sinovlari ramzini ifoda etmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Isajon Sulton asarlarida shamol motiv sifatida uchraydi. Ularda shamol qahramonning armonga aylangan, ushalmagan shirin orzulari ifodasi, inson umriga qiyos, umid ramzi, kelajak haqida darakchi kabi bir nechta ma'nolarni ifodalagan.

2.2. Peyzaj tasvirida ramz va ramziylik

Ramzlarning hayotimizdagi o'рни va ahamiyati naqadar katta ekanligini buyuk faylasuf Konfutsiyning "Olamni so'z va qonun emas, balki belgilar va ramzlar boshqaradi", degan iborasi orqali izohlash mumkin. Umuman, inson madaniyati va tafakkurining o'ziga xos ko'rinishi hisoblangan ramziylik qadimgi mifologiyada, turli dinlarda, san'atning arxaik shakllarida ko'zga tashlanadi.

Majoziylik esa Sharq mumtoz adabiyoti, Yevropa klassitsizmi, barokko va ma'rifatparvarlik davri san'atida ham keng tarqalgan. Bir-biridan uzoq bo'lgan predmetlar o'rtasidagi "muvofiglik" tamoyili voqea-hodisalarning transsendat aloqalari sifatida o'rta asrlar falsafasi va adabiyotida ancha jiddiy tadqiq etilgan. "Adabiyotshunoslik lug'ati"da ramzga "ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi"²², - deya ta'rif beriladi. Haqiqatdan ham ramz majoz (allegoriya) ga yaqin bo'lib, ba'zi hollarda ularni bir xil hodisa deb qarash mavjud. Lekin ularning farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanilishi mumkin. Professor H.Boltaboyev ramz va ramziylikka xos belgilarga shunday ta'rif beradi:

"Ramz...faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi; obrazlilik turi. Ramz mohiyatan allegoriyaga yaqin, undan farqi shuki, ramz kontekst doirasida ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llanadi. Ramzning ma'nosi kontekst doirasida va shartdan xabardorlik bo'lganda reallashadi"²³

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida esa ramzga quyidagicha ta'rif berilgan: "Ramz (arabcha ishora qilmoq badiiy adabiyotda) — voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi."²⁴

Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Masalan, sher — mardlik, tulki — makkorlik, bo'ri — ochko'zlik va boshqalar. Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud; gul — go'zallik, mashuqa; bulbul — oshiq; sariq rang — mahzunlik, qora rang — motam

²² Adabiyotshunoslik lug'ati (D.Quronov umumiy tahriri ostida), -T.:Akademnashr, 2010, B. 244

²³ Boltaboyev H., Adabiyot ensiklopediyasi, -T.: "Mumtoz so'z", 2014. B.:290

²⁴Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 7-Том, – Т., 2004

ramzi va hokazo. Ijodkorlar an'anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detal (masalan, bulut, buloq, chaqmoq va boshqalar)dan ramziy tasvir uchun foydalanadilar. Bunda u yoki bu narsa tasvir jarayonida yozuvchi maqsadiga xizmat qiluvchi muayyan ramziy ma'noga ega bo'ladi. Xalq og'zaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng ko'lamda ishlatilgan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda".

Badiiy ijodda qo'llaniladigan ramzlar o'zining xarakteri va bajaradigan vazifasi jihatidan farqlanadi. Shu o'rinda A.Sharopovning simvol-obraz va simvol-belgi haqidagi fikrlarini keltirib o'tamiz: " Simvollarning qo'llanish chegarasi xilma-xil bo'lib, u turli sohalarda uchraydi. Simvol keng ma'noda belgi tushunchasini anglatadi. Poetik simvol badiiy shartlilik vositasida nisbatan kengroq abstrakt ma'noni ifoda etadi. Simvol-belgida mohiyat va ifoda o'rtasida ichki bog'liqlik bo'lmaydi. Poetik simvol yoki ramziy obrazlarda predmet bilan ma'no o'rtasida ichki, mantiqiy aloqa bo'lishi shart hisoblanadi".

Rus shoiri A.Beliy ham "simvol" tushunchasini aniq ta'riflashga katta e'tibor qaratgan. Uning "Simvolizm dunyoni anglash sifatida" deb nomlanuvchi kitobida ramzga xos bo'lgan uch xususiyat haqida so'z boradi:

1. Ramz borliqni aks ettirishi;
2. Ramz his-tuyg'ular natijasida o'z ko'rinishini o'zgartirgan obraz ekanligi;
3. Badiiy obraz shakli va mazmunining uzviy bog'liqligi".²⁵

Ma'lumki, ramzlar ilmiy, falsafiy, badiiy va mifologik turlarga bo'linadi. Falsafiy ramzlar ilmiylaridan faqatgina xulosalarning benihoya umumlashganligi bilan farq qiladi. Badiiy va mifologik ramzlar haqida gap borar ekan, so'z san'ati bo'lgan adabiyotning o'zi ramz va ishoralardan iborat ekanligi yana bir bor ta'kidlash lozim bo'ladi va o'z navbatida mazkur turga mansub ramzlar haqida alohida to'xtalish lozim bo'ladi. "Ramz (arabcha ishora qilmoq) voqea, predmet

²⁵ Белый А., Символизм как миропонимание. <http://doklad.ru/monika/doklad/view/zip>

va tushunchalarni boshqa buyum va hodisalar orqali shartli tasvirlash usuli. Ijodkorlar an'anaviy ramzlar bilan bir qatorda tabiatdagi har bir hodisa va detalldan ramziy tasvirlash uchun foydalanadilar. Xalq og'zaki ijodiyoti va klassik adabiyotda keng ko'lamda ishlatilgan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qo'llanmoqda.

Shamol obrazi talqinlarini biz jahon adabiyoti namunalarida ham uchratamiz. "So'nggi yaproq" nomli hikoya muallifi O'Genri asarlarida ham shamol motivi uchraydi:

"...Nima bo'ldi deng? Kechasi bilan tinmay sharroq yomg'ir quyib chiqqan, shiddatli shamol esgan bo'lsa-da, g'ishtin devor yuzasida hanuz shilbi yaprog'i ko'rinib turardi. Bandiga yaqin joyi hamon to'q yashil, jimjimador qirg'og'i sarg'aya boshlab, so'lish va chirishga yuz tutgan yaproq yerdan yetti fut balandlikdagi novdada jasurona osilib turardi. – Bu so'nggisi, - dedi Jonsi. – Men uni kechasi albatta uzilib tushsa kerak, deb o'ylagan edim. Shamolning g'uvillaganini eshitib yotdim. U bugun uzilib tushadi, shundan keyin men ham o'laman".

Yuqoridagi parchada biz shiddatli shamol va shamolning g'uvillashi singari birikmalarga duch keldik. Bu yerdagi shiddatli shamol qahramon qalbida kezayotgan o'lim haqidagi dahshatli qo'rquvni, shamolning g'uvillashi esa uning qalbidagi notinchlik va tahlikaning zohiriy ko'rinishini ifoda etishga xizmat qilgan.

Bundan tashqari shiddatli shamol inson o'z hayoti davomida duch keladigan turli voqea-hodisalar, musibatlarga nisbatan sinov ramzini ham ifodalagan.

Chunki e'tibor qaratsak, asar bosh qahramoni Jonsi yaproqlarning barchasi to'kilib bo'lgandan so'ng o'zining ham umri tugashini aytadi. Bir kun tunda esgan shiddatli shamol esa uning ana shu so'nggi umidi va irodasiga qarshi qo'yilgan sinov edi.

Asar yakunida Jonsi rassom chol chizgan soxta yaproqning shamolda uzilib ketmaganini ko`radi va bundan u o`ziga ruhiy quvvat oladi, natijada tezda oyoqqa turib ketadi. Aynan mana shu jarayon ham shamolning sinov ramzi vositasida insonlarning har qanday og`ir vaziyatda ham bir-birlariga ko`makdosh bo`lishlari, taqdir ularni turli sinovlardan o`tkazadigan vaziyatlarda bir-birlariga yordam qo`lini cho`zishlari lozimligi ifoda etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton nasrning roman, qissa janrlarida ham samarali ijod qilib kelmoqda. Lekin uning hikoyanavislik faoliyati yangicha usullarga boyligi bilan alohida ahamiyatga ega. Adib hikoyalarga mavzuni abadiy mavzulardan belgilaydi. Hikoyalarning nomlanishi ham peyzajga xos bo`lib, alohida badiiy-estetik funksiya bajaradi. Masalan, “Bog`i Eram”, “Avliyo”, “Oydinbuloq”. Asar sarlavhasining o`ziyoq kitobxonda o`zgacha taassurot uyg`otadi.

Isajon Sulton asarlarida shamol motiviga keng o`rin berilgan. Yel, shabada, nasim, shamol, bo`ron, to`fon kabi darajama-daraja farq qiluvchi tabiat hodisalari tasviridan asar kompozitsiyasida unumli foydalaniladi. Va bu qahramon ruhiyati, voqelar rivojining tadrijiy o`zgarib borishini ko`rsatadi.

Ramz badiiy adabiyotda muhim o`rin tutadi. Isajon Sulton asarlarida keltirilgan peyzaj tasviri ramziylik asosida qurilganligi bilan A.Qahhor ijodi bilan mushtaraklik kasb etadi. Ba`zan hikoyalar to`lig`icha peyzajdan tashkil topadi. Bu ramziylik vositasida esa yozuvchi kitobxonga berishni istagan g`oya anchayin salmoqdorlik kasb etadi. Bu kabi tasvirlarda romantizmga xos xususiyatlar, lirizmning uyg`unlashuvini ko`ramiz.

XULOSA

Mustaqillikka erishganimizdan so`ng mamalakatimizda o`zlikni anglash, yuksak ma'naviyatli barkamol insonni tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berila boshlandi. Bu muqaddas vazifani ado etish badiiy adabiyot zimmasiga tushishini anglagan adiblar o`z asarlarida mazkur jihatlarga ko`proq e'tibor qaratdilar. Isajon Sulton ham ana shunday ijodkorlardan biri hisoblanadi. Uning hikoyalarida o`zlikni angalsh, komil inson konsepsiyasi ilgari suriladi.

Adibning hikoyalarida insoniy fazilatlar, milliy va umuminsoniy qadryatlar, insoning ruhiy dunyosidagi evrilishlar, tafakkuridagi yangilanishlar mohirona ifodalanadi. Bunda peyzaj tasvir usuli sifatida asar sarlavhasidan boshlab alohida o`rin tutadi.

BMI davomida Isajon Sultonning hikoyanavislik mahoratida quyidagi xususiyatlarni tadqiq etdik:

1. "Uslub-bu odam". Yozuvchining hikoyanavislik mahorati o`ziga xosligi bilan xarakterlidir.
2. Yozuvchining hikoya yaratish uslubida g`arb modern adiblari uslublarining mushtarak jihatlari ko`zga tashlanadi. Hikoyalarining o`ziga xos jihatlari sujetdan ko`ra ruhiyatning ustivorlik qilishida namoyon bo`ladi. Isajon Sulton ijodining mavzular ko`lami keng. Unda abadiy mavzular, shuningdek, davr bilan hamnafas dolzarb, diniy va dunyoviy mavzular o`z ifodasini topgan.
3. Isajon Sulton hikoyalari kompozitsiyasi hikoyanavislik tajribalari novatorona yondashuv asosida tuzilgan. Hikoya kompozitsiyasida peyzaj muhim rol o`ynaydi. Adib hikoyalarning nomlanishi ham peyzajga xos bo`lib, alohida badiiy-estetik funksiya bajaradi.
4. Isajon Sulton asarlarida shamol motiviga keng o`rin berilgan. Yozuvchi tabiat hodisalariga ham alohida poetik vazifani yuklay olgan. Jumladan, uning "Boqiy darbadar", "Ozod" kabi romanlari va hikoyalarida **Shamol obrazi** ayricha talqin etiladi. *Nasim, yel, shabboda, shamol, bo`ron, dovul* singari obrazlar vositasida inson va hayot to`g`risidagi falsafiy qarashlar turfa talqinlarda o`z ifodasini topadi. Adibning "hikoyalarida shamol esishi, shamol

o'yini, qahri, muloyimligi o'ziga xos timsol... "Boqiy darbadar" romanida bo'ron dahshatli kuch va ilohiy aralashuv sifatida ... "Ozod"da sarsari shamol ham hamroh, ham roviy, ham tabiatning betakror kuchi" sifatida ko'rsatiladi"²⁶. "Oydinbuloq" hikoyasida esa shamol umrning o'tkinchiligini eslatib turuvchi, o'tgan fursatlarni sarhisob qiluvchi odil hakamdir.

5. Tilning obraz yaratish resurslari, ijodkorning g'oyaviy niyati, estetik ideali, qalb kechinmalari va individual uslubini e'tirof etishga ko'maklashadigan vositalardan biriga aylangan. Yozuvchining hikoyalarida aytilmoqchi bo'lgan poetik fikrning aniq va lo'ndaligi, ifodaning estetik tasirchanligini oshirish maqsadida uning xalq hayoti, turmush tarzi, milliy ruhning yaqinligi bilan tasirli va jozibalidir. Adabiyotimizda badiiyati yuksak asarlar yaratib alohida e'tirof etilgan ijodkor asarlarining poetikasi, yozuvchining uslubiy mahoratini o'rganish, adbiyotshunoslik uchun muhim. Badiiy asarlarning g'oyaviy estetik maqsadining ilmiy talqini ko'p jihatdan xuddi shunday asarlar tilining qay darajada tahlil hamda talqin qilinishi bog'liqligi tabiiy holdir.
6. Isajon Sultonning hikoyalarining tili boyligi, ta'sirchanligi, xalqchilligi bilan ahamiyatlidir. Uning hikoyalarida obrazlar yaratish tizimi hamda personajlar nutqiga alohida e'tibor berilgan. Peyzaj tasvirini berish orqali tabiatdagi hayotni badiiylashtirgan va hayot falsafasini ifoda etgan.
7. Ramz badiiy adabiyotda muhim o'rin tutadi. Isajon Sulton asarlarida keltirilgan peyzaj tasviri ramziylik asosida qurilganligi bilan A.Qahhor ijodi bilan mushtaraklik kasb etadi. Ba'zan hikoyalar to'lig'icha peyzajdan tashkil topadi. Bu ramziylik vositasida esa yozuvchi kitobxonga berishni istagan g'oya anchayin salmoqdorlik kasb etadi. Bu kabi tasvirlarda romantizmga xos xususiyatlar, lirizmning uyg'unlashuvini ko'ramiz.

Isajon Sultonning hikoyalarini go'zal va ifodali, ta'sirchan va maroqli qilgan narsa bu ijodkorning tabiat hodisalariga, tabiat go'zalliklariga keng o'rin berganida ham ko'rinadi. Bunda yozuvchi xuddi rassom kabi tabiat tasvirini rangin,

²⁶ Расулов А. Акслар фалсафаси // Исажон Султон. Озод. «Шарқ» Т., 2012. 421б.

mohirona tasvirlaydi. Bunday tasvirlar badiiy sintezga boyligi bilan ayrialhalik kasb etadi.

Xullas, yangi asrning ilk dekaadasida jahon arenasiga chiqayotgan o`zbek adabiyotida hikoya janri har tomonlama yangilanib, yuksak taraqqiyot bosqichiga ko`tarilmoqda, deyishga barcha asoslar yetarli.Uning yangicha fazilatlarini aniqlash va tadqiq etish adabiyotishunosligimizning galdagi muhim vazifalaridandir. Isajon Sultonning hikoyalarida ham ana shunday yangilanishlar, yangi usullar o`z ifodasini topgan. Bu esa uni hali ko`plab ilmiy tadqiqotlarga asos bo`lishini ko`rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. T.,Ma'naviyat. 2008
2. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik.(M.K. Nurmammedov tahriri ostida), T., “Fan” nashriyoti, 1978-1979y.
3. Adabiyot va zamon.// Maqola, ocherk va adabiy portretlar. T., 1980
4. Aristotel. Poetika. T., 1980
5. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., “O`zbekiston” , 2002 .
6. Doniyorov X., Yo`ldoshev B. Adabiy til va badiiy stil. T.,“Fan” nashriyoti. 1988 y. –208 b.
7. I.Sulton, Adabiyot nazariyasi. T., O`qituvchi. 2005.
8. Karimov B, Adabiyotshunoslik metodologiyasi. T.,2011.
9. Karimov N. va boshqalar. XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. T.,“O`qituvchi “ nashriyoti, 1999 y., -544 b.
10. Mirvaliyev S. Adabiyot- ma'naviyat demakdir. Muloqot.2001, N6.
11. Mirvaliyev S., Shokirova R. O`zbek adiblari. T., Fan, 2007.
12. Mirzayev S. XX asr o`zbek adabiyoti., T., “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2005 y., -418 b.
13. Normatov U., Hamdam U. Dunyoni yangicha ko`rish ehtiyoji //Jahon adabiyoti. 2002. № 12. B.142-166
14. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. T.,Ma'naviyat, 2000.
- 15.O`zbekiston milliy ensiklopediyasi.T.,Davlat nashriyoti.
www.ziyouz.com
- 15 Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. T.,Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2008.
- 16 Qur'onov D, Mutolaa va idrok mashqlari. T..Akademnashr. 2013.
- 17 Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish T., Fan, 2007.
- 18 Qur'onovD., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug`ati. T., 2010.

- 19 Rahimjonov N. Soʻzning badiiy qirralari //Oʻzbek tili va adabiyoti. –2003 y., № 6.-B.30-35.
- 20 Rahimov A. Milliy adabiyotlar ravnaqi. T., «Fan» nashriyoti, 1981 y.,- 112 b.
- 21 Rasulov A. Akslar falsafasi.// Ozod , T.,Sharq. 2012.B.426
- 22 Rasulov A. Adabiyot - bezavol yangilik.T., Sharq, 2007.
- 23 Sarimsoqov B.I. Badiiylilik asoslari va mezonlari. T., “Fan” nashriyoti, 2004 y. - 127 b.
- 24 Sharafiddinov O. Birinchi moʻjiza T., Gʻ.Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1979 y., -464 b.
- 25 Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti.T.,Sharq. 2006.
- 26 Sheraliyeva M, Nasrda lirizim va kinoya, Sharq yulduzi, 2012, 1-son
- 27 Sheraliyeva M, Oʻzbek adibi Isajon Sulton ijodiga chizgilar, www.bbc.co.uk/uzbek/2012/11/1.....
- 28 Solijonov Y. Koʻzgudagi hayot. T., Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston Milliy kutibxonasi nashryoti. 2013.
- 29 Soljonov. Y. Moʻjizalar sehri. T., Adib,2013.
- 30 Sulton I., Ozod. Kichkina pushtirang maxluqcha.T.,Sharq.2012, 323 bet.
- 31 Sultonov.I. Boqiy darbadar. T., Oʻzbekiston. 2011. B. 263
- 32 Toʻychiyev U. Adabiy turlar va janrlar. 2-tom. T., “Fan” nashriyoti, 1992 y., - 250 b.,
- 33 Umurov H. Adabiyot nazariyasi. T., “Sharq” 2002 y., - 256 b..
- 34 XX asr oʻzbek adabiyoti masalalari. (ilmiy maqolalar toʻplami) T., Fan, 2012.
- 35 Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. T. , “Yangi asr avlodi” nashiryoti, 2006 y., -546 b.
- 36 XX asr oʻzbek adabiyoti tarixi.-T.,Oʻqituvchi, 1999.